2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 23 (1349), 2025-yil 1-fevral, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI – UCHINCHI RENESSANS DARVOZASI

Prezident tashrifidan so‘ng

Poytaxtning eski shahar qismi, xususan, Hazrati Imom (xalq orasida Xastimom) dahasi tevaragida istiqomat qiladigan aholi so‘nggi yillarda hududda amalga oshirilayotgan o‘zgarish va bunyodkorlik ishlarini mamnuniyat bilan qabul qilmoqda. Tor va boshi berk ko‘chalar kengaytirilib, eski va nurab qolgan uylar o‘rnida zamonaviy majmualar qad rostlayotganidan, tarixiy hudud avvalgisidan ham jozibadorlik kasb etib, adoqsiz ziyoratchilarni o‘ziga jalb qilayotganidan quvonmay bo‘ladimi axir!

— Tevarakdagi 60-yillar avvalgi manzara hamon ko‘z o‘ngimda, — deydi taniqli musavvir, faxriy pensioner Abduvali Mo‘minov. — Bolaligimda masjid qarshisidagi maydonda har yakshanba bozor bo‘lganini yaxshi eslayman. Savdogarlar, xaridorlar loy ko‘chalardan o‘tib kelardi, ot-aravalar tiqilib qolardi. Atrofdagilarning qay biri masjidga ibodatga kelgan, kim bozorda savdo bilan band, bilib bo‘lmasdi. Hozir qarang, bunyodkorlik ishlari nafaqat shu yerda tug‘ilib o‘sgan men kabi tub aholi vakillarini, balki uzoq-yaqindan kelgan mehmonlarning ham ko‘zini quvnatyapti.

Tarixan Xastimom Toshkentning eng asosiy diqqatga sazovor joylaridan biri bo‘lib kelgan. Majmua imom, olim, Qur’on va hadis bilimdoni, shoir va hunarmand Hazrati Imom — Abu Bakr ibn Ismoil al-Qaffol ash-Shoshiy qabri atrofida qad rostlagan. Hududdagi har bir me’moriy obidaning o‘z tarixi bor, ular turli davrlarga borib taqaladi.

Davomi 2-betda



Kun mavzusi

Tashabbusli budjet: JORIY YILNING BIRINCHI MAVSUMIGA START BERILDI

Fuqarolik jamiyatining asosiy jihatlaridan biri xalq fikri va ovozining ahamiyatga ega bo‘lishi, barcha jabhalarda inobatga olinishida ko‘zga tashlanadi. Ya’ni odamlar mamlakatda yuz berayotgan voqea-hodisalar, muhim jarayonlarda shunchaki kuzatuvchi emas, balki bevosita ishtirokchiga aylanishi kerak. Keyingi yillarda yangi O‘zbekistonda ayni jarayon faollashgani ko‘zga tashlanadi. Qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlar, qonun va qarorlar, loyihalarning keng jamoatchilik muhokamasiga qo‘yilishi, odamlarning turli loyihalar doirasida o‘z fikr va tashabbuslarini ilgari surishiga maydon yaratilib, ularning aksariyati qo‘llab-quvvatlanayotgani yurtdoshlarimizda daxldorlik hissini oshiryapti. Ayniqsa, yilda ikki marotaba tashkil etilayotgan “Tashabbusli budjet” loyihasi xalqimiz orasida yaxshigina ommalashdi.

Bunda odamlar o‘z hududidagi ijtimoiy muammolar bo‘yicha “Ochiq budjet” portali orqali takliflarini qoldiradi. Muayyan muddat davomida ovozlar to‘planib, g‘olib deb topilgan tashabbuslar davlat byudjetidan moliyalashtiriladi. Ya’ni endi avvalgidek mutasaddilarning “Bu masala davlat dasturiga kiritilgan, yaqin yillarda hal bo‘ladi”, degan gaplariga o‘rin qolmadi. Muammolarni o‘rtaga tashlash va ularni hal etishda odamlarning o‘zi ishtirok etyapti. Jamiki kiritilgan loyihalar, ularga berilgan ovozlar va ajratiladigan pullarning bari shaffof tizim orqali ko‘rinib turadi. Mablag‘lar ham qisqa fursatlarda ajratilyapti. Shu vaqtgacha “Tashabbusli budjet” loyihasi ortidan hududlardagi minglab ijtimoiy masalalar yechimini topib, qanchadan qancha yo‘llar asfaltlandi, ijtimoiy soha obyektlari qayta ta’mirlandi, joylarga ichimlik suv, elektr toki yetib bordi. Buning uchun o‘sha hududlardagi odamlarning birlashib, birgalikda harakat qilayotgani, ayniqsa, loyihaning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Yurtdoshlarimiz har gal “Tashabbusli budjet”ni qizg‘in kutib, unda faol ishtirok etishi odatiy holga aylandi.

Davomi 4-betda

ENERGETIKA BARQARORLIGI

MAMLAKAT RIVOJLANGANINI KO‘RSATUVCHI ENG ASOSIY TAMOYIL

Bugun energiyadan foydalanish hajmi shiddat bilan oshmoqda. Kelgusida yanada ko‘payishi biosfera hamda insoniyat taraqqiyoti uchun katta xavf tug‘diradi. Shu sababli butun dunyoda o‘tgan asrning oxirgi o‘n yilidan boshlab, energiyaning qayta tiklanuvchi, ekologik toza manbalari, avvalo, quyosh va shamol imkoniyatidan foydalanishga alohida e’tibor qaratildi. Masalan, hozir shamol energiyasini o‘zlashtirish sur’ati faqat axborot texnologiyalaridan bir oz ortda qolmoqda. Quyoshli kunlarga boy O‘zbekistonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirish strategiyasi endi ishlab chiqilmoqda. Garchi hozir qayta tiklanadigan energetika texnologiyalari uchun xarajat energiya olishning an’anaviy texnologiyalari chiqimidan ancha oshsa-da, ular joriy etiladigan obyektlarni aniq qayd etish mumkin.

Kun sayin aholi soni ko‘payishi va odamlar turmush darajasi yaxshilangani sari elektr energiyasiga talab ham oshib boraveradi. So‘nggi besh yilda yurtimizda elektr energiyasi iste’moli 20 foiz, jumladan, aholi tomonidan sarflanishi 31 foiz oshgani bu ko‘rsatkich yiliga 6 foizdan o‘sib borayotganidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda quyoshli kunlar soni uch yuz kundan ortiq bo‘lishi hamda quyosh energiyasining texnik imkoniyati 266 million tonna shartli yoqilg‘i o‘rnini bosishi quyosh energiyasidan oqilona foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi. Bu borada quyosh energiyasini boshqa turdagi energiyaga aylantirib beruvchi quyosh energetika qurilmalari qo‘l keladi.

Dunyo “yashil” iqtisodiyot hamda to‘rtinchi sanoat inqilobi doirasida global ekologik muammolarga javob topishga harakat qilar ekan, qayta tiklanuvchi energetika iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va tabiiy resurslarni samarali boshqarishda hal qiluvchi o‘rin tutishi tobora isbotini topmoqda. Iqtisodiyotning ekologik tamoyillarga asoslangan holda shakllanishi faqat energiya manbalari emas, balki texnologiyalar, innovatsiya va raqamlashtirish bilan bog‘liq keng ko‘lamli o‘zgarishlarni ham talab etadi. Shu bois, “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi asosida aynan muqobil energetika global iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilishda muhim komponent sifatida ko‘rilmoqda.

Davomi 3-betda

Islohotlar amalda

TOMORQA SHUNCHAKI “TOM ORQASI” EMAS

UNDAN SAMARALI FOYDALANISH TOBORA DOLZARBLASHIB BORMOQDA

Joriy yilning 30-yanvar kuni Prezidentimiz tomonidan tomorqada va ijaraga berilgan ekin yerlarida daromadli mahsulot yetishtirishning yangi tizimi bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda ushbu yo‘nalishda dolzarb bo‘lgan bir qator masalalar ko‘rib chiqildi.

Darhaqiqat, bugun yerdan oqilona va unumli foydalanish har qachongidan muhim bo‘lib bormoqda. Shu jihatdan olganda, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar odamlarning yerga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirishga, uning har qarichini samarali ishlatishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Yig‘ilishda qayd etilgan yangiliklar bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda yurtimizda 5 milliondan ortiq tomorqa yer egasi 508 ming gektar yerda dehqonchilik qilmoqda. Tomorqasida har kim o‘z imkoniyati, ixtiyoriga qarab mahsulot yetishtiradi. Talabgorlar orasida meva-sabzavotchilikka qiziqadiganlar ko‘p. Ayrimlari bu ish bilan avvaldan shug‘ullanib kelgan. Ba’zilar tajribali dehqonlardan ishning hadisini olib, so‘ng bu ishga kirishmoqda. Muhimi, vaqtini ham, hovlisini ham bo‘sh qoldirmay, oilasi daromadiga hissa qo‘shib kelyapti. Lekin hali bu borada foydalanilmayotgan imkoniyatlar mavjud. Masalan, tomorqa va dehqon xo‘jaligi yerlari, ularda yetishtirilgan mahsulot hisobini yuritish bo‘yicha ham yangicha tizim bo‘ladi. Buning uchun yil yakunigacha tomorqalar va ekin yerlari alohida tasniflanadi. Ularda nima ekilgani “onlayn mahalla” platformasiga kiritiladi. Yerdan samarali foydalanib, bir sotixdan 5 million so‘mdan yuqori rasmiy daromad olayotgan dehqonlarga yer solig‘ining 90 foizi keshbek sifatida qaytarib beriladi. Aksincha, tomorqasiga ekin ekmaganlardan yer solig‘i oshirilgan miqdorda undiriladi.

Hozir bu sohada “raqamli bozor” bo‘lmagani uchun dehqonlar meva-sabzavotiga xaridor, qayta ishlovchi va eksportchilar esa mahsulot qidirib yuribdi. Shu bois, ularni o‘zaro bog‘laydigan “market pleys” ishga tushiriladi.

Xonadon tomorqalaridan foydalanishning yana bir samarali usuli issiqxonalar qurishdir. Bu orqali ham yaxshigina daromad, ham yiliga ikki-uch marta hosil olish mumkin. Hatto oila a’zolaridan tashqari qo‘shimcha bir necha kishini ish bilan ta’minlash imkoniyati bor.

Davomi 3-betda

“YERGA, MULKKA MUNOSABATIMIZ BUTKUL O‘ZGARDI”

Har bir oila — tadbirkor

Zominlik Abror Shirinboyev ijaraga yer olib, dehqonchilik qilar, biroq har doim ham ekindan yaxshi daromad topmasdi. Tabiat injiqliklari, suv yetishmovchiligi va boshqa omillar sabab yetishtirilgan hosil bir o‘xshasa o‘xshardi, o‘xshamasa yo‘q.

Oilasi, ro‘zg‘orini obod etish uchun Abrorning nima qilsam ekan deya boshi qotib yurganida mahallaga biriktirilgan hokim yordamchisi Dilshod Bozorboyevning tavsiyasi va maslahati bilan “Har bir oila — tadbirkor” dasturi doirasida bankdan 33 million so‘mlik imtiyozli kredit oldi.

Tomorqasida uch sotixli issiqxona barpo etgan Abror Shirinboyev Janubiy Koreyadan keltirilgan “Solhyan” qulupnayidan 3700 tup ekdi. O‘tgan yilning avgustida gidroponika usulida ekilgan rezavor noyabrga kelib pishib yetildi. Bu navning mahalliy navlardan afzalligi shundaki, parvarish yaxshi bo‘lsa, yil-o‘n ikki oy qulupnaydan hosil olish mumkin. Issiqxonaning yuza qismida bir vaqtda besh-olti turdagi ko‘katlar hamda zaxira uchun qulupnay ko‘chatlari ham parvarish qilinayotir.

— Biz odatda bahorda qisqa muddatda yetishtiriluvchi mahalliy qulupnay navlariga shakar qo‘shib iste’mol qilishga o‘rganganmiz, — deydi tadbirkor Abror Shirinboyev. — Bu koreys navi mevasini yirikligi, bo‘liqligi, shirinligi sabab shakarsiz iste’mol qilish mumkin.

Davomi 4-betda

Prezident tashrifidan so‘ng

ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZI — UCHINCHI RENESSANS DARVOZASI

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Qaffol Shoshiy maqbarasi, Baroqxon va Mo‘yi Muborak madrasalari XVI asr, Namozgoh masjidi XVIII asr va Tillashayx jome masjidi XX asrda barpo etilgan. 2007-yilda qurib bitkazilgan Hazrat Imom jome masjidi va O‘zbekiston musulmonlari idorasining yangi ma’muriy binosi majmuani to‘ldirishga xizmat qildi.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 23-iyundagi qaroriga binoan bunyod etilayotgan O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi esa ushbu qadimiy ilm-ma’rifat va ziyo maskanidagi purviqor safni yanada boyitadigan bo‘ldi. 2018-yilgi Ramazon hayiti kuni davlatimiz rahbari uning poydevoriga tamal toshini qo‘ydi. Bugun tariximizda ilgari bo‘lmagan ulkan va noyob loyiha hisoblanadigan majmuaning muhtasham binosi qad rostlab, qurilish ishlari yakuniy bosqichga kirgan.

Prezidentimiz 29-yanvar kuni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishgan edi. Kuni kecha ommaviy axborot vositalari uchun markazga media-tur uyushtirildi. Jurnalistlar bu yerdagi ekspozitsiya va noyob megaloyihalar, inshootga kiraverishda markazning tarixi va qurilishiga oid tashkil etilgan ko‘rgazma bilan tanishtirildi.

Markaz uch qavatdan iborat va qadimiy obidalarimiz shaklida bunyod etilmoqda. Milliy gumbaz va peshtoqlar, naqshlar uyg‘unligi unga alohida ko‘rk va salobat bag‘ishlagan. Majmuaning to‘rt tomonida balandligi 34 metrli peshtoqlar, o‘rtada 65 metrli gumbaz qurilgan. Ushbu gumbaz tagida Qur’oni karim zali bo‘ladi va Qur’onning eng qadimiy nusxasi — Usmon Mus’hafi joylashtiriladi. Uning atrofida qoraxoniylar, g‘aznaviylar, somoniylar, saljuqiylar, O‘zbekxon, temuriylar davrida bitilgan muqaddas kitobimiz nusxalari va ularning turkiy tarjimalari o‘rin oladi. Shuningdek, devorda jahondagi eng nodir qo‘lyozma Qur’onlar suratlari qo‘yiladi.

“Xalqimizning boy va betakror merosiga oid ko‘p kitoblar, turli o‘lkalarga sochilib ketgan qo‘lyozmalar, noyob ma’lumotlar, san’at asarlari, afsuski, bizga noma’lum edi. Mana shu markaz sabab bo‘lib tarixni o‘rganishda katta qadamlar qo‘ydik, yangi manbalar yuzaga chiqdi. Endi bularning ta’siri, natijasi qanday bo‘ladi? Ularni faqat yodgorlik sifatida saqlamasdan, faol ilmiy iste’molga kiritish, aholimiz, yoshlarimizga tushunarli tilda yetkazish, jahon jamoatchiligiga keng targ‘ib qilish kerak. Bu dargoh nafaqat o‘tmish haqida hikoya qiladigan, balki tarix, bugun va kelajakni bog‘laydigan, taraqqiyotimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradigan aql-tafakkur markazi bo‘lishi zarur”, dedi Prezidentimiz ushbu zal eksponatlari bilan tanishish asnosida.

Mazkur davrlar tarixi turli ashyolar, qo‘lyozma manbalar, suratlar va multimedia vositalari orqali namoyish etilgan. Ayniqsa, “Dunyo fondlarida saqlanayotgan, O‘zbekistonga oid 114 ta Qur’oni karim qo‘lyozmasi faksimilelari ko‘rgazmasi” bo‘limida muhim manbalar jamlangan. Shuningdek, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Burhoniddin Marg‘inoniy, Bahouddin Naqshband, Xo‘ja Ahror Valiy kabi ulug‘larimizning islom ma’rifatiga qo‘shgan hissasi urg‘ulangan. Xorazmiy, Farg‘oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi kabi olimlar hamda jadid bobolarimizning serqirra faoliyati haqida ma’lumot berilgan.

— Majmuada “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”, “Birinchi Renessans davri”, “Ikkinchi Renessans davri”, “O‘zbekiston XX asrda”, “Yangi O‘zbekiston — yangi Renessans” kabi bo‘limlar tashkil etiladi,

— deydi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi direktorining ilmiy tadqiqot ishlari bo‘yicha o‘rinbosari Irgash Daminov. — Davlatimiz rahbari bir necha yillar avval tarixdagi Renessanslar davrini o‘rganishda Imom Abu Mansur Moturidiy va Abu Muin Nasafiy kabi ajdodlarimiz boy ilmiy merosining ahamiyatiga alohida e’tibor qaratgan edi. Samarqanddagi qadimiy Chokardiza qabristonida barpo etilgan Imom Abu Mansur Moturidiy maqbarasi va muzeyi bugun muqaddas qadamjolar qatoridan munosib o‘rin egalladi. Xuddi shuningdek, Abu Muin Nasafiy ilmiy merosini o‘rganish va keng targ‘ib etish maqsadida Qashqadaryo viloyati Qarshi tumanidagi ziyoratgohda ulkan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari olib borildi. Ming yillikdan ortiq tarixni o‘zida mujassam etgan bu kabi ko‘plab ajdodlarimiz merosiga ko‘rsatilayotgan ehtirom markaz zallarida o‘z aksini topadi.

Islom sivilizatsiyasi markazi Axborot xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, markaz ming yillar muqaddam ota-bobolarimiz asos solgan sivilizatsiyalar hamda ularning mantiqiy davomi bo‘lgan yangi O‘zbekistonning ilmiy, madaniy-ma’rifiy salohiyatini jahonga namoyon qiladi.

Markazdan muzey va kutubxona, anjumanlar zali, ajdodlarimizning ilm-fan rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi va me’morchilik an’analariga bag‘ishlangan ko‘rgazma zallari, axborot-resurs markazi, akademiya, arxiv va qo‘lyozmalar fondi o‘rin oladi. Kutubxona va fondlarni mamlakat hamda chet ellarda saqlanayotgan qadimiy qo‘lyozma va toshbosma kitoblar, tarixiy hujjatlar, arxeologik topilmalar, osori atiqalar, zamonaviy ilmiy tadqiqot ishlari, video va fotohujjatlar bilan boyitish, 300 o‘rinli konferensiya zali barpo etish ishlari ham bugun o‘zining yakuniy bosqichiga kirgan.

Shu bilan birga, mahalliy va chet ellik mutaxassislarni keng jalb etgan holda ilmiy tadqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish, musulmon Renessansi davrida ilm-fan, madaniyat va san’at, me’morchilik rivoji to‘g‘risidagi keng qamrovli ma’lumotlar berish, dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida UNESKO, ICESCO, IRCICA kabi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatish, diniy ta’lim muassasalariga ilmiy tadqiqot va o‘quv-uslubiy masalalarda hamda o‘qituvchi va diniy xodimlarning malakasini oshirib borishda amaliy yordam ko‘rsatish ham markazning asosiy vazifalari qatoridan joy olgan.

— Davlatimiz rahbarining buyuk madaniy-ma’rifiy merosga bo‘lgan ulkan e’tibori bu galgi tashrif davomida yana bir bor o‘z isbotini topdi, — deydi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy kotibi Rustam Jabborov. — Markaz jamoasi, hamkor tashkilotlar, ilmiy muassasalar vakillari uchun bu tashrif, unda ko‘tarilgan masalalar, qimmatli yo‘l-yo‘riq va tavsiyalar katta kuch va ilhom baxsh etdi deyish mumkin. Ana shu ezgu maqsad yo‘lida kuch va imkoniyatlarni birlashtirish, oldimizga qo‘yilgan mas’uliyatli vazifalarni ado etish uchun hamjihatlik bilan harakat qilish lozim.

Aniq va keng ko‘lamli ilmiy dalillar, markazdan o‘rin olgan manbalar yurtimizning jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri, uzoq tarixda ham dunyo tamadduniga bebaho hissa qo‘shgan ulug‘ allomalarni yetishtirib bergan muqaddas zamin ekanini yana bir bor ko‘rsatmoqda.

— Buyuk alloma va mutafakkirlarimizning jahon ilm-fani, islom dini va madaniyatini rivojlantirishdagi roli dunyo hamjamiyati tomonidan keng va ko‘p e’tirof etilgan, — deydi texnika fanlari doktori, professor Qudrat Karimov. — Ularning ichidan buyuk olimlar, me’mor, hunarmand, amaliy va tasviriy san’at ustalari yetishib chiqdiki, ular yaratgan asarlar, mahobatli binolar, nafis san’at buyumlari, miniatyura va xattotlik namunalari jahon madaniyat merosida alohida o‘rin egallagan. Men ham Xastimom mahallasi faoli sifatida markaz eksponatlari bilan tanishib boryapman. Bu yerda kelgusida tarixiy faktlarga tayanib, O‘zbekiston hududida rivojlangan islom sivilizatsiyasi manzarasini davrlar kesimida xolisona va tizimli namoyish etish imkoni mavjudligidan xursand bo‘ldim. Bu, albatta, vatandoshlarimizda milliy g‘ururning shakllanishiga xizmat qiladi.

Havola etilgan ekspozitsiyalar bilan tanishish vaqtida yana bir narsaga guvoh bo‘ldik. Markazda tariximizda chuqur iz qoldirgan Bibixonim, Xonzodabegim, Gavharshodbegim, Gulbadan, Nodirabegim, Uvaysiy, Anbar otin kabi mashhur ayollarning ilm-ma’rifat homiysi sifatidagi faoliyati ham ifodasini topgan. Bu ekspozitsiya muhtarama ayollarimiz qalbida buyuk momolarimiz bilan faxrlanish tuyg‘ularini yanada yuksaltirdi.

Prezidentimiz markazda amalga oshirilgan ishlar va u yerdagi nodir ekspozitsiya hamda qo‘lyozmalar bilan tanisharkan, tarixni o‘rganishda katta qadamlar tashlangani, yangi manbalar yuzaga chiqayotganini qayd etdi.

Darhaqiqat, bu dargoh nafaqat o‘tmish haqida hikoya qiladigan, balki tarix, bugun va kelajakni bog‘laydigan, taraqqiyotimizning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradigan aql-tafakkur markazi bo‘lib bo‘y rostlamoqda.

Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlar.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Dil izhori

HURMAT VA YUKSAK ISHONCHDAN RUHLANDIM

Ubaydulla MINGBOYEV,
O‘zbekiston sudyalari assotsiatsiyasi raisi,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi

Tavallud topgan kunim bilan chin yurakdan tabriklab, samimiy qutlov va ezgu tilaklarini yo‘llagan, shuningdek, sud-huquq tizimidagi kamtarona xizmatlarimni yuqori baholab, 90 yoshga to‘lishim munosabati bilan “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoni bilan taqdirlagan Prezidentimizga yuksak ehtiromim va chuqur minnatdorligimni izhor etaman.

Menga bildirilgan ezgu tabrik va tilaklarni, avvalambor, yangi O‘zbekistonimizda adolatning mustahkam o‘rnatilishiga qaratilgan barcha xizmatlarni sidqidildan bajarishga bo‘lgan ishonch, taqdim etilgan faxriy unvonni davlat hokimiyatining mustaqil tarmog‘i sanaladigan sud tizimi hamda sudyalarga ko‘rsatilgan e’tirof sifatida qabul qilaman.

Fursatdan foydalanib, o‘zim tahsil olgan Toshkent davlat yuridik universitetiga tashrif buyurib, u yerda o‘tkazilgan konferensiyada qatnashib, sha’nimga iliq so‘zlar bildirgan hukumat va parlament a’zolariga, davlat idoralari rahbarlari hamda jamoatchilik vakillariga ham o‘z tashakkurlarimni bildiraman.

Ko‘rsatilgan hurmat va yuksak ishonchdan ruh olib, bundan keyin ham shu tizimning oqsoqoli sifatida islohotlar amalga oshirilishida kamarbasta bo‘lishni burchim deb bilaman.

ISHSIZLIKDAN XOLI

Bandlik

SURXONDARYODA BUNDAY HUDUDLAR SONI KO‘PAYMOQDA

Shu yil yakuniga qadar O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 6 foizga qisqartirilishi maqsad qilingan. Mazkur natijaga esa, avvalo, aholining ishsiz qatlamiga o‘zini o‘zi band qilishi uchun barcha sharoitlar yaratilishi orqali erishiladi. Shu bois, aholi bandligini ta’minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Surxondaryo viloyatida ham bu borada izchil ishlar qilinyapti.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil mobaynida vohada 19,6 ming fuqaro kasb-hunarga o‘qitildi. Jumladan, 16,4 mingi servis va xizmat ko‘rsatish, 938 nafari qurilish, 208 nafari qishloq xo‘jaligi mutaxassisligi, 1,2 mingi hunarmandlik, 790 nafari esa IT yo‘nalishda qisqa muddatli tahsil oldi. Shuning ortidan 13 ming fuqaroning bandligi ta’minlandi.

Yana bir gap. Yurtimizda ko‘plab tarmoqlarning mahallabay ishlash rejimiga o‘tkazilishi har bir oilaning ijtimoiy va iqtisodiy holatini haqqoniy va xolis baholash imkonini yaratdi.

2024-yil davomida “Har bir oila — tadbirkor” dasturi asosida 575 milliard so‘m imtiyozli kredit ajratilib, viloyatda 32 ming 739 ta yangi ish o‘rni ochildi. 2024-yilda mahallalarga biriktirilgan hokim yordamchilari tomonidan berilgan ijobiy tavsiyanomalar bilan qariyb 5 ming yurtdoshimizga 22,1 milliard so‘m subsidiya ajratildi.

— Bugun bunday imkoniyatdan foydalanib, daromad manbaiga ega bo‘layotgan yurtdoshlarimizni Surxondaryo viloyatining deyarli barcha mahallalarida uchratish mumkin. Birgina misol, bizning mahallada 2024-yilda “mahalla yettiligi” tomonidan hududda aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka yo‘naltirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Yuzdan ortiq fuqaro kasbga o‘qitildi, hunar o‘rgatildi, doimiy bandligi ta’minlandi, — deydi Termiz tumanidagi Namuna mahallasidagi hokim yordamchisi Muhriddin Po‘latov. — O‘z sevimli kasbiga ega, mehnat bilan band kishining oilaviy hayoti tinch-osoyishta bo‘ladi. Shu bois, tashqi mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarga ham zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Muhimi, buning izidan odamlarning hayotga, yashashga bo‘lgan dunyoqarashi o‘zgargan. Yurtga daxldorlik hissi uyg‘ongan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-noyabr oylari davomida viloyat bo‘yicha xorijdan 52 ming fuqaro qaytib kelgan va bandligi ta’minlangan.

Termiz shahri Surxon sohili mahallasida yashovchi Odil Almanov hozir tadbirkor. Bir necha yillar davomida xorijda yurgan yurtdoshimiz vatanda kechayotgan o‘zgarishlarni kuzatib, so‘ng qaytib keldi. Tadbirkorlik salohiyatini ishga solib, mahallada bo‘sh turgan binoni ijaraga olib ish boshladi. Hozir nafaqat o‘zi va oilasi, balki 10 dan ortiq mahalladoshining bandligini ta’minlagan.

— Tadbirkorligimning asosiy yo‘nalishi uyning shift qismi uchun gulli bezaklar ishlab chiqarish. Xorijdan kelib, ishonib-ishonmay ish boshladim. Mahalladagi hokim yordamchisi tavsiyasi bilan ajratilgan kredit evaziga chet eldan maxsus uskuna keltirib ish boshladik. Ko‘rib turibsiz, hammasi boshlaguncha ekan. Davlatning o‘zi sizga tayanch, — deydi tadbirkor Odil Almanov.

Aholi bandligini ta’minlash maqsadida mikroloyihalar ishlab chiqilgan. 2024-yilda Surxondaryo viloyatidagi har bir mahallada 30 tadan, jami 21 ming 720 ta mikroloyiha hayotga tatbiq etilishi belgilab olingan edi. Amalda 21 ming 994 ta shunday loyiha amalga oshirilishi hisobiga yakunda 34 mingdan ortiq aholining bandligi ta’minlandi.

Surxondaryo agrar soha uchun eng maqbul hududlardan biri. Bu yerda aholi bandligi haqida so‘z borganda, tomorqachilik va issiqxonachilik yo‘nalishiga alohida to‘xtalish joiz. Sababi mamlakat yalpi ichki daromadining uchdan bir qismidan ortiqrog‘i qishloq xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi. Tarmoqda 3,5 milliondan ortiq aholi ish bilan band. O‘sha gap, ayniqsa, Surxon vohasining ob-havosi mo‘tadil, tuprog‘i unumdor. Shu bois, voha mirishkorlari har mavsumda shijoat bilan ishlab, yaxshi daromad topadi. Qishloq xo‘jaligidagi islohotlar natijasida viloyatda tomorqa maydonlaridan samarali foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Ularda mo‘jazgina issiqxonalar barpo etilib, mo‘l hosil, yuqori daromad olish imkoniyatlari tobora kengaymoqda.

— Viloyatda hozir 49 ming 472 gektar tomorqa yer mavjud, o‘tgan bir yil davomida ushbu maydonlarda jami 4 million 202 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirilgan bo‘lsa, 2 million 295 ming tonnasi aholi tomorqalari hissasiga to‘g‘ri keladi, — deydi Surxondaryo viloyati Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bo‘lim boshlig‘i Xayrullo Husanov. — Ayniqsa, tomorqadan samarali foydalanishda respublikamiz bo‘ylab joriy etilgan Sayxunobod tajribasiga to‘xtalib o‘tish joiz. Surxondaryo viloyatida ham ushbu tajriba amaliyotga keng tatbiq etilyapti. Barcha mahallalarda daromadli mehnat bilan shug‘ullanishga ishtiyoqi bor xonadonlar tanlab olinib, ularning tomorqalarida issiqxona bilan birga layoqatiga mos ravishda chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, quyonchilik, baliqchilikni yo‘lga qo‘yish va buning natijasida bir yilda 50 million so‘mdan daromad topishiga ko‘maklashish chora-tadbirlari ko‘rildi.

Viloyatda “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili 2024-yilda ham o‘z natijasini ko‘rsatdi. Mazkur tamoyil asosida eksportbop sifatli mahsulot yetishtirilayotir, kambag‘al oilalar doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmoqda va bandligi ta’minlanmoqda. Yana bir qulaylik — mahsulotni yetishtirishda ko‘chat, suv, mineral o‘g‘it hamda bozor ta’minoti yetakchi tadbirkor tomonidan kafolatlanishi. Bu tamoyil ham, ayniqsa, Surxon vohasida o‘z samaradorligini ko‘rsata oldi.

Angor tumanidagi Bahor mahallasi ahli dehqonchilik bilan muntazam shug‘ullanadi. 4500 dan ortiq kishi yashaydigan mahallada dehqonchilik, chorvachilik asosiy drayver sanaladi. Hudud “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili keng joriy etilishi natijasida ishsizlikdan xoli manzilga aylangan. Ayni shu kunlarda qish fasli bo‘lishiga qaramay, tomorqalarda yetishtirilgan gulkaram, daykon, qizil lavlagi kabi ekinlar, shifobaxsh ko‘katlar bozorga chiqarilmoqda. E’tiborlisi, bu mahsulotlar xorijga ham eksport qilinyapti.

Chindan ham bugunga kelib, tomorqa dasturxonlarimiz to‘kinligi va aholining daromad manbaiga aylanib bormoqda. Surxon vohasi mirishkorlari o‘z hovlisidagi yer maydonini bo‘sh qoldirmaslikka intilmoqda.

Ular orasida Termiz tumani mirishkorlari ham bor. Xususan, Panji Abrayev tomorqasida issiqxona qurib, sabzavot mahsulotlari yetishtirib kelayotir. Sohadagi fidoyi mehnatlari e’tiborga olinib, 2024-yilda u “Namunali tomorqachi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

— Bunday e’tibor biz kabi tomorqachi dehqonlarga shijoat, kuch bag‘ishlaydi, — deydi Panji Abrayev.

Tahlillarga ko‘ra, 2 sotixli issiqxonada 700 tup pomidor ko‘chati ekilsa, har bir tupidan o‘rtacha 4-5 kilodan mahsulot olish mumkin. 1 kilo pomidorning narxi mavsumga qarab 3 ming so‘mdan bo‘lganda, birinchi hosilning o‘zidan 7-8 million so‘m daromad topish imkoni mavjud. Bu jihatlar e’tiborga olinib, viloyatda issiqxona sharoitida dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun keng imkoniyat yaratilmoqda. Imtiyoz asosida bo‘sh turgan yerlar uzoq muddatga berilishi bilan birga bu yerlarga vaqtinchalik ko‘chma issiqxonalar qurish ham mumkin bo‘ladi. Bunday issiqxonalar soni ortishi, eng avvalo, bandlikni ta’minlash va oilalarga qo‘shimcha daromad keltirishga xizmat qiladi.

— Joylarda Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan imtiyozli kreditlar ajratilayotgani faoliyatini kengaytiraman degan yurtdoshlarimiz uchun manfaatli bo‘lmoqda, — deydi jamg‘armaning viloyatdagi vakili Ro‘ziboy Mo‘minov.

2025-yilda viloyatda bandlik dasturiga asosan, 425 mingta yangi ish o‘rni yaratish reja qilingan. Joriy yilda Termiz shahri, Jarqo‘rg‘on va Denov tumanlari ishsizlikdan xoli hududga aylantiriladi. Bundan tashqari, 30 ming 620 ishsiz fuqaroga tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun hokim yordamchilari tavsiyasiga ko‘ra 319 milliard so‘m imtiyozli kredit ajratish maqsad qilingan.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili

Sanjar SHOQO‘CHQOROV,
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

ENERGETIKA BARQARORLIGI

mamlakat rivojlanganini ko‘rsatuvchi eng asosiy tamoyil

Boshlanishi 1-betda

Bu borada maqsadlarimiz bor

Mamlakatimizda ishlab chiqarish, energetika, qurilish, transport, qazilma boyliklarni qazib olish, qayta ishlash, umuman, iqtisodiyotimizning barqaror rivoji atrof-muhit muhofazasida bir qancha og‘ir masalalarni vujudga keltirmoqda. “Yashil” transportga jadal o‘tish, qayta tiklanuvchi energetika ishlab chiqarish hajmini oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini keng joriy etish, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va uglerod neytralligiga erishish yangi O‘zbekistonning ustuvor strategik maqsadiga aylangan.

BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasiga 193 mamlakat qatorida O‘zbekiston ham a’zo. Shuningdek, mamlakatimiz 2021-yil noyabrda Buyuk Britaniyaning Glazgo shahrida o‘tkazilgan Iqlim bo‘yicha xalqaro sammitda jahon hamjamiyati oldida 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotga nisbatan issiqxona gazi ulushini 35 foiz kamaytirish tashabbusini bildirdi. Mazkur maqsadlarga erishish uchun shu davrda qayta tiklanuvchi energetika manbalari orqali energiya ishlab chiqarish quvvatini qariyb 16 ming megavattga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining texnik salohiyati 180 million tonna neft muqobiliga teng bo‘lib, yillik energiya resurslariga talabdan uch barobar ziyod. Bu mazkur yo‘nalishda imkoniyatimiz yetarli ekanini anglatadi. Ayni paytda yurtimizning 7 ta viloyatida umumiy quvvati 2,4 gigavattli 9 ta yuqori quvvatli quyosh fotoelektr stansiyasi hamda bitta shamol elektr stansiyasi tomonidan “yashil” energiya ishlab chiqarilayotgani shunday sa’y-harakatlar samarasidir.

Qazilma yoqilg‘ilarning geologik zaxirasi geografik hududlarda teng taqsimlanmagan va ularni qazib olish xarajati ham farq qiladi. Har xil yoqilg‘i va energiya turi kam sonli mamlakatlar hududida to‘planib qolgan. Ushbu davlatlarda energiya iste’moli miqdori ba’zida ulardagi organik yoqilg‘i zaxirasidan ancha kam. Bu esa energiya tashuvchilar uchun narxlar o‘sishi, ayrim mamlakatlar va aholi ba’zi toifalarining energetika xizmatlaridan foydalanishini cheklab qo‘ymoqda. Davlatlar o‘rtasida qarama-qarshiliklar, hatto urushlarga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, organik yoqilg‘ini qazib olish, qayta ishlash, transportirovka qilish va foydalanish atrof-muhitga ham mislsiz zarar yetkazadi. Energetika bilan ta’minlashning an’anaviy usullari va iqtisodiyotning jadal rivojlanishini inobatga olsak, energetika resurslarini iste’mol qilish hajmi oshib boraveradi. Ekologik toza energetika texnologiyalari esa hozircha ushbu muammoni hal qilishga sezilarli ta’sir ko‘rsata olmayapti.

Nazariy jihatdan qaraganda, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulardan keng ko‘lamli foydalanish uchun katta imkoniyat yaratadi. Biroq bu bilan bog‘liq moliyaviy xarajatlar va bajarilishi lozim bo‘lgan shartlar ushbu manbalar jozibadorligini muayyan darajada pasaytiradi. Iqlimning global isib ketishi bilan bog‘liq muammoni e’tibordan soqit qilganda ham yaqin kelajakda muqobil energetika imkoniyati cheklanganicha qolaveradi.

O‘tgan yil 13-dekabrda Prezidentimiz energetika sohasidagi obyektlar va loyihalarni foydalanishga topshirish marosimida qiymati 7 milliard dollarlik 24 ta yangi quvvatni ishga tushirdi. Yangi loyihalar orqali 4 milliondan ortiq xonadon uzluksiz toza energiya bilan ta’minlanishini ta’kidladi. Marosimda ishga tushayotgan quvvatlar va yangi loyihalar orqali kelgusi yillarda qo‘shimcha 9,5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilib, 2,5 milliard kub metr tabiiy gaz tejalishi, 4,6 million tonna zararli gaz chiqarilishining oldi olinishi qayd etildi.

Eng asosiysi, 4 milliondan ziyod xonadon uzluksiz toza energiya bilan ta’minlanadi. Umuman olganda, joriy yilda jami 84 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Bu 2016-yilga nisbatan 25 milliard kilovatt-soat yoki 1,5 barobar ko‘p deganidir.

Bugun O‘zbekistonda quyosh va shamol elektr stansiyalarini loyihalashtirish, o‘rnatish va ishga tushirish borasida xorijlik hamkorlar bilan ishlar jadal davom ettirilmoqda. Jahonning yetakchi kompaniyalari O‘zbekistonning “yashil” energetika bozoriga katta qiziqish bilan qaramoqda. Tarmoqda taniqli va katta tajribaga ega “Masdar”, “ACWA Power”, “Aksa Energy” kabi kompaniyalar ancha faol. Bu, asosan, yurtimizda quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyati yuqori ekani hamda investorlarga qulay sharoit yaratilgani, ularning tadbirkorlik faoliyati yuritish huquqi muhofaza qilingani bilan bog‘liq.

Muqobil energiyaning yana bir manbai

Hozir dunyoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo‘yicha Germaniya, Yaponiya, Xitoy AQSH, Ispaniya va Hindiston yetakchilik qilmoqda. Ba’zi rivojlangan davlatlar atom elektr stansiyalaridan muqobil energiya manbalari sifatida foydalanmoqda. Aksariyat yetakchi mamlakatlar energetika tizimiga e’tibor qaratilsa, ishlab chiqarilgan quvvatning katta ulushi aynan AESlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Buning sababi hozircha eng barqaror energetik yechim sifatida aynan yadro energetikasi ko‘rilayotganidir. Xalqaro atom energiyasi agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakat ichki energetika sohasida yadro quvvati ulushi eng yuqori bo‘lgan mamlakatlar sirasiga Fransiya, Slovakiya, Vengriya kiradi. Rossiya, AQSH, Xitoy ham ushbu yo‘nalishda ancha faol.

Yadro energetikasi nol emissiyali energiyaga erishish yo‘lidagi eng to‘g‘ri tanlovlardan biridir. Bunday usulda energiya ishlab chiqarilishida Qolaversa, mamlakatimizda mazkur tarmoqda xorijlik investorlar jalb etilishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan raqobat muhitini yuzaga keltiradi. Natijada zarur qurilmalar, stansiyalar va butlovchi jihozlar arzonlashuviga olib keladi. Xorij tajribasidan samarali foydalanishimizga imkon beradi.

Yuqoridagi omillarni inobatga olib aytish mumkin: yurtimizda quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish, aholi xonadonlariga ham kichik quvvatli quyosh va shamol energetikasi qurilmalarini o‘rnatish maqsadga muvofiq. Qilinayotgan ishlar ham aynan shu yo‘nalishda rivojlanib borayotgani diqqatga sazovor. O‘zbekiston bu borada o‘z maqsadlari sari dadil odimlamoqda.

uran oksidi atomlari parchalanishidan hosil bo‘lgan quvvatdan foydalaniladi. Hosil bo‘lgan issiqlik bug‘ energiyasiga uzatilib, ushbu quvvat generator turbinasini aylantirish uchun sarflanadi. Jarayonda hech qanday yoqilg‘i sarflanmagani sababli atmosferaga zararli emissiya ham chiqmaydi.

AQSHning Yadro energetikasi instituti tahliliga ko‘ra, ushbu mamlakatda 2020-yilda atom energiyasi evaziga 471 million tonnadan ortiq karbon emissiyasi atmosferaga chiqishining oldi olingan. Bu 100 millionta avtoulovning yil davomida chiqargan zararli gaziga teng miqdor. Shuningdek, har yili sodir bo‘ladigan kislotali yomg‘irlar, tutunlar, o‘pka saratoni va yurak-qon tomir kasalliklariga olib keluvchi havoni ifloslantiradigan moddalardan xalos bo‘lishga ko‘maklashadi.

Ekologik toza (shamol, quyosh, dengiz) energetika texnologiyalarini o‘zaro taqqoslasak, hech biri yadro energetikasi kabi kam maydon egallab, katta miqdorda quvvat bera olmaydi. Bitta odatiy yadro reaktori beradigan quvvat miqdoriga tenglashish uchun 3 milliontadan ortiq quyosh paneli yoki 430 tadan ziyod shamol turbinasi kerak bo‘lishi mumkin.

Globallashuv davrida elektrlashmagan va raqamlashmagan deyarli biror soha qolmadi. Bunday vaziyatda jamiyatning barcha ehtiyojlarini to‘laqonli qanoatlantirish, barqaror taraqqiy etuvchi iqtisodiyotni qurish yo‘lida energiya ta’minoti uzluksizligi juda muhim. Energetika barqarorligi kelgusida mamlakatlarning rivojlanganini ko‘rsatuvchi eng asosiy tamoyilga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, ilmiy puxta o‘ylangan va barcha xalqaro texnik xavfsizlik standartlariga to‘liq javob beradigan AESlar qurish kelajak uchun yaxshi sarmoya bo‘ladi.

Tobora jadallashib borayotgan iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda energiyaning ushbu turini ishlab chiqarish katta ahamiyat kasb etishi mumkin. Sababi uran oksidi parchalanishida issiqxona effektiga sabab bo‘luvchi gaz juda kam miqdorda ajraladi. Hozir butun dunyoda ishlab turgan AESlar hisobiga taxminan 2 milliard tonnaga yaqin karbonat angidrid gazi atmosferaga chiqishining oldi olinmoqda.

Yadro energetikasi inshootini barpo etish birmuncha qimmat baholansa-da, ishlab chiqarilgan elektr energiyasi ancha arzon bo‘ladi. Bunga amaliy misol sifatida Fransiyada elektr energiyasi narxi Yevropadagi energiya narxi o‘rtacha ko‘rsatkichidan 25 foiz arzon ekanini keltirish mumkin. Shuningdek, ushbu mamlakat har bir kilovatt-soat elektr energiyasi olish uchun 85 gramm karbonat angidrid gazi hosil qilib, shu ko‘rsatkich sababli dunyodagi karbon eng neytral energiyaga egalik qiladi. Taqqoslash uchun aytish kerak: butun dunyoda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 438 gramm.

Imtiyozlardan qay darajada foydalanyapmiz?

“Yashil energiya” axborot tizimidan olingan ma’lumotga ko‘ra, bugun mamlakatimiz bo‘yicha 98 ming 246 ta obyektga 970 megavattli kichik quyosh elektr stansiyalari o‘rnatilgan.

Bugun ko‘pchilik yurtdoshlarimizda quyosh panelini o‘rnatganlarga qancha subsidiya berilishi, qanday soliq imtiyozlari borligi, tadbirkorlarga qanday imkoniyatlar yaratilishi bo‘yicha savollar tug‘ilmoqda.

2023-yilning 1-aprelidan respublikamizda aholi xonadonlariga kichik quvvatli, ya’ni umumiy quvvati 50 kilovattgacha bo‘lgan quyosh panelini o‘rnatishni rag‘batlantirish bo‘yicha “Quyoshli xonadon” dasturi amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu dastur doirasida aholi tomonidan quyosh panellari orqali ishlab chiqarilgan ortiqcha elektr energiyasining har bir kilovatt-soatiga 1000 so‘mdan subsidiya ajratildi.

Quyosh panellarini o‘rnatgan fuqarolar ushbu qurilmalar bo‘yicha mol-mulk solig‘i, qurilmalar bilan band bo‘lgan uchastkalar bo‘yicha yer solig‘i, yuridik shaxslar tomonidan umumiy tarmoqqa sotgan elektr energiyasi uchun olgan foydasidan hisoblanadigan foyda solig‘idan ozod etildi. Qolaversa, tadbirkorlar, xorijlik investorlar qayta tiklanuvchi energiya manbalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasini davlat organiga yoki hududiy elektr tarmoqlariga o‘rnatilgan tariflarda, boshqa iste’molchilarga o‘zaro kelishilgan narxlarda to‘g‘ridan to‘g‘ri tuzilgan, jumladan, uzoq muddatli shartnomalar asosida sotishi mumkin.

Quyosh panellarini o‘rnatmoqchi bo‘lgan fuqaro va tadbirkorlarga banklar kredit ajratmoqda.

Elektr energiyasi bizga har kuni kerak. Shunday ekan, tabiat in’om etgan qayta tiklanuvchi manbalardan unumli foydalanish lozim. Bu har tomonlama o‘zini oqlaydi. “Yashil” texnologiyalarni qo‘llash orqali bir necha barobar ko‘p quvvat olish va milliardlab mablag‘ni tejash mumkin.

Ushbu yo‘nalishda chiqarilayotgan hujjatlar ijrosi mamlakatimizda quyosh yoki shamol elektr stansiyalari bilan birga boshqa turdagi energiyatejamkor qurilmalarning ham aholi o‘rtasida keng ommalashishiga olib keladi. Aholida manfaatdorlik hissi shakllanadi, oilani moddiy ta’minlash uchun katta imkoniyatlar yaratiladi. Xarid qilingan quyosh yoki shamol elektr stansiyalarining o‘z-o‘zini qoplash muddati kamayadi, diskont foyda miqdori oshadi. Ushbu tadbirlar natijasida aholining “yashil” texnologiyalardan samarali foydalanishi hamda ekologik toza qurilmalarning hayot tarzimizga singib borishiga keng yo‘l ochiladi.

Islohotlar amalda

TOMORQA SHUNCHAKI “TOM ORQASI” EMAS

UNDAN SAMARALI FOYDALANISH TOBORA DOLZARBLASHIB BORMOQDA

Zafar MIRZAAHMEDOV,
O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi yetakchi mutaxassisi

Boshlanishi 1-betda

Yangi ish o‘rinlari yaratish, ayrim insonlardagi boqimandalik kayfiyatini yo‘qotish, ularni tadbirkorlik sohasiga keng yo‘naltirish maqsadida o‘tgan yili 152,4 ming xonadondagi jami 2591 gektar maydonga ixcham issiqxonalar qurib berildi. Ayni paytda 696,9 mingdan ziyod xonadonda shunday issiqxonalar mavjud bo‘lib, aholi ularda mehnat qilib, ro‘zg‘origa qo‘shimcha daromad kirityapti.

Masalan, Andijon viloyatining Asaka tumanida istiqomat qiluvchi Mohirbek To‘raqulov xonadonidagi ixcham issiqxonada sitrus meva yetishtirib, yiliga 150-200 million so‘m daromad olmoqda.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Bunday issiqxonalarni qurib, aholiga imtiyozli kreditlar asosida topshirishda “Tomorqa xizmati” MCHJ korxonalarining hissasi katta bo‘lyapti.

Hududlarda tomorqa bilan ishlaydigan, aholiga moddiy resurslarni yetkazib beradigan, moliyalashtiradigan va ekin ekishni nazorat qiladigan tizim yaratilib, “Tomorqa xizmati” MCHJlar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi odamlarga dehqonchilik ishlarini boshlashda katta ko‘mak bermoqda.

2018-yilda sinov tariqasida ilk bor tashkil etilgan “Tomorqa xizmati” korxonalariga yil sayin talab ortib borayotganining sababi ham shu. Prezidentimizning 2020-yil 30-iyundagi “Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan respublikamiz bo‘ylab 3 mingdan ziyod “Tomorqa xizmati” MCHJ faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Bunday korxonalar aholiga ish boshlagan ilk kunidanoq ko‘makchi bo‘lib, tomorqalarga ekin ekish, olingan hosilni xaridorga yetkazguniga qadar yordam berib kelyapti. Joylarda aholi tomorqalarini shudgorlash, zarur urug‘lik va ko‘chat yetkazib berish, xonadonlarga ixcham issiqxona qurishda ko‘maklashish, echki, qo‘y, quyon, parranda, asalari uyalari yetkazib berish kabi ishlarni “Tomorqa xizmati” korxonalari orqali tashkil etish yo‘lga qo‘yilmoqda.

Bunday korxonalar O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan muntazam qo‘llab-quvvatlab kelinyapti. Xususan, 2024-yilning so‘nggi 6 oyida “Tomorqa xizmati” korxonalarida 417 ta meva-sabzavotlarni sovitish, 607 ta meva-sabzavotni saqlash ombori, 403 ta mevani saralash, qadoqlash, quritish va qayta ishlash liniyasi tashkil qilindi. Mazkur yo‘nalishlar uchun kengash huzuridagi jamg‘armadan 378,2 milliard so‘m imtiyozli kredit ajratildi.

Soha rivojida klasterlar muhim drayverga aylanayotir. O‘tgan yildan “Tomorqa xizmati” klasterlari ham tashkil etila boshlandi. Xususan, ayni vaqtda meva-sabzavot ko‘p yetishtiriladigan tumanlarda 12 ta yo‘nalish bo‘yicha 68 ta tomorqa xizmati klasteri ishlamoqda. Ular tomorqalarda yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash, do‘konlarga yetkazib berish, meva-sabzavotlarni qayta ishlash sexlari ochishda ko‘makchi bo‘lyapti.

Umuman, “Tomorqa xizmati” MCHJlar bugun mavjud imkoniyatlardan foydalanib, tomorqalarda yetishtirilgan hamda klasterlar tomonidan qayta ishlangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ichki bozorlarimizdan tashqari xorijga eksport qilishda ham faol ishtirok etyapti.

Jumladan, o‘tgan yilda 30 ta “Tomorqa xizmati” korxonasi tomonidan 15 million dollarlik 65,7 ming tonna mahsulot Germaniya, Saudiya Arabistoni, Eron, Pokiston, Xitoy, Malayziya, Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Afg‘oniston, Rossiya, Ukraina va Yevropaning qator davlatlariga jo‘natildi.

Yer olib, ekin ekkan bilan hosil mo‘l bo‘lavermaydi. Yaxshi natijaga erishish uchun bilim, tajriba zarur. Hududlarda mahallabay ishlash tizimi, uyma-uy yurish orqali targ‘ibot qilish, “Bir mahalla — bir mahsulot” tamoyili asosida ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish aholiga qulaylik yaratyapti. Ushbu tizim natijasida respublika bo‘yicha 5145 ta mahalla muayyan turdagi mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirildi. Shu tariqa sabzavotchilik, kartoshkachilik, mevachilik, bog‘dorchilik, chorvachilik, parrandachilik va boshqa yo‘nalishlar mahallalar miqyosida rivojlantirilyapti.

Xonadonlarning bir mahsulotni yetishtirishga ixtisoslashishi qator afzalliklarga ega. Avvalo, “Tomorqa xizmati” MCHJlar tomonidan bitta mahallaga bir mahsulot urug‘i yoki ko‘chati yetkazib berilishi hisobiga xonadonlar egalarining ham vaqti, ham naqdi tejaladi. Mahsulot pishib yetilganidan keyin ham xaridor topishda muammolar bo‘lmaydi. Bir mahsulotni katta hajmda oluvchi xaridorlar doim topiladi.

Kun mavzusi

Tashabbusli budjet: JORIY YILNING BIRINCHI MAVSUMIGA START BERILDI

Boshlanishi 1-betda

Shu kunlarda yirik loyihaning joriy yilgi birinchi mavsumi start oldi va u 1-fevraldan 20-martga qadar davom etadi. Jarayonlarning loyiha kiritish bosqichi 1-20-fevralda, saralash bosqichi 21-fevral – 7-mart kunlari bo‘lib o‘tadi. So‘ng 8-10-martda targ‘ibot bosqichi, 11-20-mart sanalarida esa ovoz berish bosqichi o‘tkaziladi. Birinchi mavsum g‘oliblari shu yil 21-mart – Navro‘z umumxalq bayramida e’lon qilinadi. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, loyihaning bu yilgi birinchi mavsumida 2,7 trillion so‘m ajratilishi ko‘zda tutilgan.

Talab va mezonlar qanday?

“Tashabbusli budjet” o‘z nomi bilan budjet mablag‘larining muayyan qismini sarflash bo‘yicha tashabbuslarni ilgari surish orqali aholining mahalliy o‘zini o‘zi boshqarishda bevosita ishtirok etish shaklini anglatadi. Fuqarolar tomonidan muayyan taklif ilgari surilar ekan, u jamoatchilikka ochiq taqdim etiladi. Loyihaga omma tomonidan ovoz beriladi. Har bir hududda eng ko‘p ovoz to‘plagan takliflar g‘olib deb topiladi va loyihalar berilgan ovozlar sonidan kelib chiqib saralanadi, moliyalashtiriladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, bu amaliyot dunyoning ko‘plab mamlakatlari, jumladan, AQSH, Braziliya va Janubiy Koreyada keng tarqalgan. Yurtimizda esa loyiha 2021-yildan tajriba tariqasida yo‘lga qo‘yildi. Ammo undan avvalroq bunga omil yaratilib, fuqarolarning hatto byudjet mablag‘larini shakllantirishdagi ishtirokini ta’minlashga qaratilgan harakatlar boshlangandi. Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan 2018-yildan davlat budjetini shakllantirish va mablag‘larni joylarda taqsimlashga bevosita fuqarolarni jalb etish mexanizmi yaratildi.

Buning amaliyotdagi sodda va qulay shakli esa “Tashabbusli budjet” ko‘rinishida kirib keldi. 2021-yilda “Ochiq budjet” platformasi ishga tushirilib, unda “Tashabbusli budjet” bo‘limi ochildi. Bu yerda fuqarolar o‘z yashash hududidagi kichik mahalliy muammolarni hal etish uchun loyihalar taklif qilishi mumkin. Aholi ko‘pincha yo‘l yomonligi, ta’lim va tibbiyot muassasalari ta’mirtalab holga kelib qolgani, muhandislik infratuzilmalari yetishmasligini ko‘rsatadi. Eng ko‘p ovoz olgan loyihalar g‘olib chiqib, moliyalashtiriladi.

Birinchi yili “Tashabbusli budjet” unchalik ommalashmadi. Fuqarolar budjet pullari taqsimotida o‘zi qatnasha olishiga, umuman, davlat soliq to‘lovchilar haqida qayg‘urishiga ko‘p ham ishonmadi. Qolaversa, yangi tizimni hamma birdaniga tushunmadi. Shunga qaramay, loyihaning ilk mavsumida 1100 ta taklif tushdi. G‘olib loyihalar moliyalashtirilib, odamlar ko‘targan muammolar darhol yechila boshlagach, birdaniga loyihaga qiziqish ortdi. “Tashabbusli budjet”ning 2021-yildagi ikkinchi mavsumida takliflar soni keskin oshib, 41 ming 125 taga yetdi. Shu tariqa mazkur tashabbus qisqa vaqtda yirik loyiha sifatida ommalashdi.

2022-yildan “Tashabbusli budjet” o‘zbekistonliklarning e’tiboridagi muhim jarayonlardan biriga aylandi. O‘sha yilning birinchi mavsumida 69 ming 700 ta, ikkinchi mavsumda 61 mingta taklif kiritilgani ma’lum qilindi. Loyihadagi tashabbuslar yurtimizdagi mahallalarning 98 foizini qamrab olib, taklif bermagan mahalla qolmadi hisob. 2023-yilda fuqarolar tanlagan loyihalar uchun avvalgi yilgidan 3,5 barobar ko‘p — 8 trillion so‘m ajratiladigan bo‘ldi. 2024-yildagi 2-mavsumning o‘zida 1772 ta loyiha g‘olib deb topilib, 2 trillion 271 milliard so‘m ajratildi.

Ammo loyihada raqobat katta ekani, g‘olib bo‘lish oson emasligini yurtdoshlarimiz yaxshi biladi. Takliflar ovoz berish bosqichiga qadar ham ishchi komissiya tomonidan saralanadi. Loyihalar qator mezonlar asosida tanlab olinadi. Xususan, loyihada aks etgan muammo yoki tadbir muayyan tuman (shahar) hududiga tegishli bo‘lishi, jamoaviy muammolarni hal etishga qaratilishi, jamoatchilik tomonidan bildirilgan takliflar idoraviy yoki shaxsiy xususiyatlarga ega bo‘lmasligi, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlamasligi hamda loyihani amalga oshirish natijasida pulli xizmat asosida foydalanilmasligi, budjet tashkilotini saqlab turish bilan bog‘liq xarajatlarni o‘zida aks ettirmasligi kabi talablar mavjud. Bordiyu, bir xil mazmundagi bir necha loyihalar ilgari surilgan bo‘lsa, ulardan ma’lumoti to‘liq ko‘rsatilgan dastlabki kiritilgan loyiha qabul qilinadi.

Bugungi kunda “Tashabbusli budjet”ni odamlarni bir maqsad yo‘lida birlashtirayotgan, o‘z hududidagi muammolarni birgalikda yechishga undayotgan eng katta loyiha deyish mumkin. Axir qachon yurtdoshlarimizda

mahalliy muammolarni o‘rtaga tashlab, uni taqdim eta olish, uning uchun zarur mablag‘ni qo‘lga kiritib, masalaning yechimiga qadar o‘zi nazorat qilish imkoniyati bo‘lgan?! Qolaversa, birlashib qilingan ishlarning qadri ham, qiymati ham balandroq bo‘ladi.

O‘tgan yili “Tashabbusli budjet”da g‘olib bo‘lgan Zarbdor tumani 2-umumta’lim maktabida nihoyat bolalar uchun yangi sport zali qurilib, foydalanishga topshirildi. Endi o‘quvchilar sport mashg‘ulotlarini ana shu ko‘rkam va zamonaviy zalda o‘tkazyapti. O‘yingoh nafaqat yoshlar, balki keng jamoatchilik uchun ham xizmat qiladi. Chunki uning qurilishiga ko‘pchilik o‘z ovozi bilan hissa qo‘shgan. Qolaversa, hozir har bir yoshdagi inson uchun sport bilan shug‘ullanish muhim. Maktab jamoasi esa bunga o‘z hissasini qo‘shmoqchi. Yon-atrofdagi aholining zalga kelib shug‘ullanishi va bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi uchun sharoit yaratildi.

Urganch tumanidagi qator mahallalarda esa ko‘chalarga asfalt yotqizish zarurati bo‘lgan. Loyihaning o‘tgan yilgi ikkinchi mavsumida tumandagi Tandirchi mahallasi fuqarolari tomonidan ichki yo‘llarni asfaltlash taklifi kiritilgan edi. Tashabbus eng ko‘p ovoz to‘plagan loyihalar qatoridan joy olib, ayrim ko‘chalarga asfalt yotqizildi. Bunday misollarni har bir hududdan o‘nlab, yuzlab keltirish mumkin.

Qo‘shimcha o‘zgartirishlar kiritildi

Qisqa vaqtda amaliy natija beradigan loyiha hammani qiziqtirishi rost. “Tashabbusli budjet”ning bu qadar ommalashgani boisi ham shunda, natijasi tez fursatda ko‘rinadi. Shunday ekan, takliflar ko‘pligi, hammaning g‘olib bo‘lishga intilishi tabiiy. Ammo bu jarayon qanday bo‘lmasin ovoz to‘plash uchun turli usullardan foydalanilib, qator e’tirozlarni yuzaga keltirgani ham sir emas. Har bir ovoz uchun biror narsa taklif qilishlar ochiqchasiga kuzatilganiga guvoh bo‘ldik. Sun’iy ovoz to‘plash holatlari uchradi. Ammo har qanday loyiha to takomillashtirilguniga qadar shunday kamchiliklar yuz beradi. “Tashabbusli budjet” odamlarni bir oz shoshirib qo‘ygan bo‘lsa-da, fuqarolarda saylov kampaniyalari o‘tkazish, o‘z takliflarini ochiq ilgari surish, jamiyatdagi muammolarga nisbatan faollik ko‘rsatish ko‘nikmasini shakllantira oldi. Ovoz berish jarayonlaridagi ko‘zga tashlangan kamchiliklarga kelsak, bu tizim tadrijiy rivojlanib, loyiha avvalida ishlagan ayrim usullar takomillashtiril-yapti, umrini yashab bo‘lgan boshqalari esa astasekin foydalanishdan chiqmoqda.

Masalan, 2024-yildan “Bir fuqaro — bir ovoz” tamoyili joriy etildi. Bu bir fuqaro, uning nomida bir necha SIM karta bo‘lsa ham, bir mavsumda faqat bir marta ovoz bera olishini anglatadi. Mazkur chora ko‘p SIM karta sotib olib, loyihasining g‘oliblik imkoniyatini oshirishga uringanlarning xatti-harakatlariga javob bo‘ldi. Bundan tashqari, mazkur tamoyil turli ko‘rinishdagi ovoz to‘plashga majburlovlarning ham oldini oladi.

Oliy Majlis Senati Kengashining 13-yanvardagi qarori bilan joriy yildan “Tashabbusli budjet”ni amalga oshirish jarayoniga boshqa qator o‘zgartirishlar kiritildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligining ma’lum qilishicha, endi har yili har bir tuman yoki shaharda kamida 10 ta va ko‘pi bilan 30 ta loyihani amalga oshirish uchun yetarli mablag‘ ajratiladi. Bu qo‘llab-quvvatlanadigan tashabbuslar soni bo‘yicha minimal va maksimal chegarani belgilaydi. Agar loyihalar soni 10 tadan oshsa, mablag‘ tuman yoki shahardagi aholi soniga qarab taqsimlanadi. Bu esa aholi zich joylashgan hududlar ko‘proq moliyalashtirishga da’vo qilishi mumkinligini anglatadi. Hozirgi kunda bitta loyihani moliyalashtirishning chegaraviy qiymati 1,5 milliard so‘mni tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, tuman yoki shahar budjetlaridan ajratiladigan mablag‘larning eng kam miqdori 15 milliard so‘mni, eng ko‘pi 45 milliard so‘mni tashkil etadi.

Shuningdek, endi o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tganini inobatga olgan holda joriy yil 1-mavsumdan boshlab moliyaviy mustaqil bo‘lgan oliy ta’lim muassasalarining “Tashabbusli budjet”da ishtirokiga ruxsat etilmaydi. Ijtimoiy muammolarga ko‘proq e’tibor qaratish maqsadida tashkilotlar tomonidan barcha turdagi avtomobillar, jamoat xavfsizligini ta’minlashga oid jihozlar (radar, jamoat joylaridagi kuzatuv kameralari, svetofor), rahbar xodimlar uchun mebel jihozlarini xarid qilish taqiqlandi. Albatta, bu holatlarning nazorati ham olib boriladi. Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda budjet tashkilotlari xodimlarini ovoz berishga majburlash holatlarining oldini olish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni tashkil qiladi va har bir mavsum yakunlari bo‘yicha Senatga axborot taqdim etadi.

Shunday qilib, “Tashabbusli budjet”ning 2025-yildagi birinchi mavsumi start oldi. Odamlar esa “Ochiq budjet” portali orqali takliflarini kirita boshladi. Demak, yurtdoshlarimiz tomonidan ilgari suriladigan yana minglab tashabbuslar o‘rtaga tashlanib, g‘olib bo‘lganlari qisqa fursatlarda amaliy yechimini topadi. Xalqning takliflari, odamlarimizning ovozi bilan qanchadan qancha yo‘l ta’mirlanib, yangi maskanlar quriladi, ijtimoiy manzillar obod bo‘ladi.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Har bir oila — tadbirkor

“YERGA, MULKKA MUNOSABATIMIZ BUTKUL O‘ZGARDI”

Boshlanishi 1-betda

Darhaqiqat, eksportbop nav sanalgan “Solhyan” qulupnayi Janubi-sharqiy Osiyo davlatlarida ancha mashhur. Bu navning o‘ziga xosligi shundaki, qulupnay dekabrdan maygacha hosil beradi. Jahon bozorida narxi yuqori baholanadi. Dastlabki yillarda nihollardan haftasiga o‘n kilodan hosil yig‘ishtirib olinsa, vaqt o‘tib, hosil cho‘g‘i yuqorilab boraveradi. Qulupnayning yana bir tomoni, har bir tupda ham meva, ham gullar rivojlanib, bosqichma-bosqich, navbatma-navbat davriylik tartibi bo‘yicha xuddi bodring yetishtirish usuliga o‘xshab, yetilgan hosil peshma-pesh yig‘ishtirib olinadi.

— Issiqxonadagi ekin uchun eng asosiysi, yorug‘lik, harorat, suv, o‘g‘it, dori va albatta, mehr, — deydi xonadon bekasi Hafizaxon Shirinboyeva. — Mashaqqatdan keyin yutuqlar ham keladi. Ming shukr, mehnatimiz rohatini ko‘ryapmiz. Yerga, mulkka munosabatimiz butkul o‘zgardi.

O‘tgan kuni terib olingan qulupnayning har kilosini tadbirkor 170 ming so‘mdan ulgurji narxda buyurtmachilarga sotdi. Tomorqasiga uzumning eksportbop qora va qizil husayni, qora janjal navlaridan ekdi. Uchta sigir, parrandalar ham parvarishlayotgan Abror Shirinboyev bugun o‘zini va yaqinlarining bandligini ta’minlab, ikki oilaning ro‘zg‘origa baraka kiritayotganidan mamnun. Tadbirkorlik qilish niyatida undan maslahat so‘rab kelayotgan hamqishloqlari soni ko‘payib bormoqda.

— O‘tgan yili 39 fuqaroga imtiyozli kredit ajratib, tadbirkorlik bo‘yicha bandligini ta’minladik, — deydi Zomin tumani “Gulshan” QFYdagi hokim yordamchisi Dilshod Bozorboyev. — 15 ayolga subsidiya asosida tikuv mashinasi berildi. Ishsiz 9 fuqaro kasb-hunarga o‘qitildi.

Chorvachilik, dehqonchilik — mahallaning asosiy drayveri. Mahallada ishsizlar sonini qisqartirish, yerdan, tomorqadan unumli foydalanish va daromad olish, aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha qator yangi loyihalar, Sayxunobod, Uychi, G‘ijduvon, Zarbdor tajribalari ommalashtirilmoqda.

Shu mahallada yashovchi As’had va Gulnoza Imangulovlarning tomorqasida bo‘sh joyning o‘zi qolmagan. Imtiyozli kredit hisobidan 2,5 sotix issiqxonada limonning “Meyer” navi yetishtirilmoqda.

> **Oilaviy tadbirkorlar bog‘dorchilikdan ham yaxshigina daromad topyapti. Boqqa o‘n turdan ortiq 200 tupga yaqin mevali daraxt ekilgan. Shuningdek, tomorqada rezavorlar, ko‘kat va ziravorlar bor. 30 ta qo‘y, 2 ta sigir, parrandalar ham parvarishlanayotir.**

— Limon yorug‘lik va doimiy namlik talab qiluvchi, quruq havoni yoqtirmaydigan sitrus meva, — deydi xonadon bekasi Gulnoza Imangulova. — U ko‘p yillik o‘simlik bo‘lib, 45 yilgacha umr ko‘rishi mumkin. Bir tup limon 30 dan 200 donagacha meva beradi.

— Bu navdan 22 tup ekkanmiz, — deb suhbatga qo‘shiladi oilaviy tadbirkor As’had Imangulov. — Bu yil 600 kilo hosil oldik. Kilosini buyurtmachilarga 18 ming so‘mdan sotdik. Qo‘shimchasiga tuvakda limon ko‘chatlarini ko‘kartirib, zaxira hozirlab qo‘yamiz.

Oilaviy tadbirkorlar bog‘dorchilikdan ham yaxshigina daromad topyapti. Boqqa o‘n turdan ortiq 200 tupga yaqin mevali daraxt ekilgan. Shuningdek, tomorqada rezavorlar, ko‘kat va ziravorlar bor. 30 ta qo‘y, 2 ta sigir, parrandalar ham parvarishlanayotir.

Zomin tumanining “Gulshan” qishloq fuqarolar yig‘ini hududidan qaytar ekanmiz, qish bo‘lsa-da bahor nafasiga to‘yib, dimog‘imizdan koreys qulupnayining xush ifori sira ketmasdi.

Zoir ERGASHEV,
jurnalist

BEPUL, QULAY VA QIZIQARLI DARSLAR

“IBRAT FARZANDLARI” YOSHLARGA ANA SHUNDAY IMKONIYAT YARATMOQDA

Yuksalish pallasi

“Til bilgan — el biladi” naqli bugungi kunda yanada ahamiyat kasb etib bormoqda. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatishga har qachongidan ko‘ra katta e’tibor qaratilayotir. Umumta’lim maktablariga xorijiy tillarni o‘qitish uchun 500 dan ortiq “Til egalari” jalb qilingani, xalqaro til sertifikatini olish uchun imtihondan yuqori ball to‘plagan yoshlarga davlatimiz tomonidan xarajatlar to‘liq qoplab berilayotgani, turli tanlovlar, loyihalar qilinayotgani fikrimizga dalil bo‘la oladi.

Shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda hayotimizga kirib kelayotgan yangi texnologiyalardan foydalana olish uchun xorijiy tillarni bilish muhim. Xalqaro hamkorlik doirasida dunyoning yetakchi kompaniyalari va tashkilotlarida faoliyat yuritish uchun til bilish muvaffaqiyat kalitidir. Bugun chet tillarni o‘rganayotganlar soni ortib bormoqda. Bunda yaratilgan imkoniyatlarning o‘rni alohida. “Ibrat farzandlari” ana shunday loyihalardan biri. Prezidentimizning keng jamoatchilik muhokamasi uchun e’lon qilingan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmoni loyihasida bu borada ustuvor vazifalar belgilangan. Chet tillarni ommalashtirishga ko‘maklashuvchi “Ibrat farzandlari” loyihasini rivojlantirish va uning doirasida “Ibrat academy” mobil ilovasini takomillashtirish, “Ibrat — tillar oromgohi”, “Xorijiy tillar marafoni”ini o‘tkazish belgilangan. Biz loyiha haqida uning ishtirokchilari fikri bilan qiziqdik.

Mahfuza ORTIQOVA,
“Ibrat farzandlari” loyihasi menejeri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori:

— “Ibrat farzandlari” loyihasi hozirgi kunda yoshlarning bepul til o‘rganishi uchun ajoyib imkoniyatdir. 2022-yil noyabr oyida tashkil etilgan loyiha xorijiy tillarni bepul, sodda, tizimli va kreativ usulda o‘rgatishni maqsad qilgan. Loyihada yoshlar qisqa muddatda o‘zi uchun qulay joydan turib, turli chet tillarni o‘rganishi mumkin.

Mazkur loyiha O‘zbekistonda birinchilardan bo‘lib xorijlik mehmonlar uchun o‘zbek tili va grammatikasini o‘rgatishni yo‘lga qo‘ygan. Bugungi kunda loyiha doirasida 23 ta xorijiy til, xorijliklar uchun o‘zbek tili (ingliz, rus, ozarbayjon tillarida), savodxonlik darslari, imo-ishora tili, IELTS, TOEFL xalqaro sertifikatlari olishga ko‘maklashuvchi imtihonlarga tayyorlov, axborot texnologiyalari, bolalar uchun ingliz tili o‘rgatib kelinmoqda.

Qisqa vaqt ichida “Ibrat farzandlari” loyihasi YouTube platformasi sahifasida 728 mingdan ortiq obunachiga ega bo‘ldi. Mazkur platformada 2700 dan ortiq videodars va test joylangan bo‘lib, ular deyarli 50 million marta tomosha qilingan.

Xorijiy tillarni o‘rganishni yanada takomillashtirish maqsadida “Ibrat Academy” mobil ilovasi ishlab chiqilgan, unda foydalanuvchilar mazkur tillarni o‘rganishi, lug‘at yodlashi va testlarni yechish orqali bilimlarini mustahkamlab borishi mumkin. “Ibrat Academy” mobil ilovasida esa 1 million 500 mingdan ortiq kishi til o‘rganmoqda. Ulardan 300 mingga yaqini til sertifikatlarini qo‘lga kiritgan. Jumladan, mazkur ilovaga bugungi kungacha 2200 ta videodars, 2241 ta test joylashtirilgan.

Ayni kunlarda “Ibrat Academy” mobil ilovasiga yangi imkoniyatlar qo‘shilmoqda. Ya’ni ingliz tilidan nafaqat grammatik bilimlar, balki xorijiy til o‘rganishning to‘rtta ko‘nikmasini qamrab olgan umumiy ingliz tili kursi, sun’iy idrok yordamida til darajasini aniqlovchi test va diagnostik testlar shular jumlasidan.

Hozirgi kunda “Ibrat farzandlari” tarkibida chet tillarni o‘rgatuvchi “TOP 100 Uni”, “Ibrat Debate”, “Ibrat Camp”, “Ibrat master class”, “Ibrat quiz”, “Notiqlik mahorati”, “Speaking club”, bolalar uchun “Ibrat Kids City” kabi loyihalar ham tashkil qilib kelinmoqda.

“Ibrat Debate” loyihasi doirasida respublikamizning barcha hududlarida hafta oxirida muntazam ravishda debatlar tashkil etilmoqda. Bu orqali yoshlar ingliz tilida tanqidiy fikrlash bilan birga, nutq boyliklarini oshirmoqda.

O‘tgan yilning dekabr oyida loyiha koordinatori va tashabbuskori Azizbek Zaylobiddinov dunyoning eng yetakchi universitetlaridan biri — Garvardda bakalavriatda o‘qish uchun 100 foizli grant sohibiga aylandi.

“Ibrat farzandlari”ning yana bir loyihasi — “Speaking club” yil davomida 100 dan ortiq sessiya o‘tkazdi va unda 2000 ga yaqin yosh ishtirok etdi. “TOP 100 Uni” loyihasi doirasida dunyoning yetuk 100 ta oliygohiga kirish sirlari mazkur oliygohlarda tahsil olgan va olayotgan yoshlar ishtirokida o‘rgatib kelinmoqda.

Yoshlar ishlari agentligi va “Ibrat farzandlari” loyihasi tomonidan Toshkent shahri va viloyatlarda loyiha ofislari tashkil etilgan bo‘lib, ular yoshlarning xorijiy tillarni mukammal o‘rganishiga, kerakli videomahsulotlar bilan tanishishiga yordam bermoqda.

“Ibrat farzandlari” brendi ostida esdalik sovg‘alar (soat, xudi, kepka, futbolka, sumka, daftar, ruchka, bokal, ko‘krak nishoni) ishlab chiqildi va bu sovg‘alar tillarni mukammal o‘rganayotgan hamda boshqalarning chet tilni o‘rganishiga turtki bo‘layotgan faol yoshlarga taqdim etib borildi.

2024-yilda bolalar uchun mo‘ljallangan til darslari va kontentlar ko‘paytirildi, har bir xorijiy tildan o‘qish, yozish, tinglab tushunish va so‘zlashuvni rivojlantirishga qaratilgan, “Ibrat farzandlari” videodarsliklarini qamrab olgan maxsus o‘quv qo‘llanmalar, savollar hamda testlar bazasi yaratildi. “Ibrat farzandlari” loyihasi ustozlari ishtirokidagi marafon va uchrashuvlarda yoshlarga motivatsiya berildi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatildi. Ularni xorijiy tillarni o‘zlashtirishga va bu orqali jahon hamjamiyatida munosib o‘rnini topishga targ‘ib qiluvchi milliy kontentlar, jumladan, maxsus “Kurash” seriali yaratildi.

Elbek DULLIYEV,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi:

— 2023-yil yanvar-fevral oylarida “Ibrat farzandlari” loyihasi doirasida nemis tili kurslariga start berildi. O‘sha kunlarda nemis tilini o‘rganish istagida o‘quv markazlariga murojaat qilib yurgandim. “Ibrat farzandlari” haqida eshitib, loyihani ko‘proq bilishga harakat qildim. Xorijiy tillarni o‘rganish uchun eng sodda yo‘l bo‘lgan bepul onlayn kurslar e’tiborimni tortdi.

O‘sha vaqtdan nemis tilini o‘rganishni boshladim. Oldinda meni katta sinov — talaba bo‘lish jarayoni kutayotgandi. 7 oy mobaynida nemis tilini chuqur o‘rganishga intildim. 2023-yil avgustda davlat imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirib, O‘zDJTUga davlat granti asosida qabul qilindim. Bu bir necha yillik orzum edi. Buning uchun ustozlarim Dilfuza Latipova va Feruza O‘rolovadan juda minnatdorman. Ularning qiziqarli, kreativ va samarali darslari o‘z natijasini berdi. Bu loyihaning birgina mening hayotimdagi aksi, men kabi yuzlab, minglab yoshlar, tengdoshlarim undan samarali foydalanyapti deya olaman.

Ushbu loyiha bepulligi, yosh tanlamasligi va istalgan paytda foydalanish imkonini berishi bilan boshqalardan ajralib turadi. “Ibrat farzandlari” bilan tilni tez va oson o‘rganish mumkin. Interaktiv darslar orqali ma’naviy va amaliy bilimlarim oshib bordi. Zamonaviy uslub — sun’iy intellekt yordamida o‘rganish ham meni juda qiziqtirdi.

Shunday imkoniyatdan foydalangan holda bundan bir necha oy oldin turk tilini qisqa davr ichida o‘rganib oldim. Ayni paytda ikki tilda bemalol gaplasha olyapman. Til bilish darajam esa ikkisida ham B2+ ni tashkil qiladi.

O‘tgan yilning yoz oyida uch oy Germaniyada bo‘lib qaytdim. Til bilganim uchun xorijda hech qiynalmadim.

Xorijiy tillarni bilishim hayotning har bir qadamida asqatyapti. Universitetimiz miqyosida o‘tkaziladigan xalqaro va mahalliy forumlarda chet ellik ustozlarga tarjimonlik qilaman. Xorijliklar bilan suhbatlashib, ularga tariximiz va universitetimiz haqida so‘zlab beraman. Bilim va imkoniyatlarimdan unumli foydalanish maqsadida o‘quv markazida nemis tilidan ta’lim beryapman.

Shohrux RO‘ZMATOV,
Mirobod tumani 2-sport maktabi shifokori, xalqaro toifadagi sport tibbiyoti mutaxassisi:

— Shifokorman. Bir kuni men amaliyot o‘tayotgan tibbiyot muassasasiga jarohat olgan, Kubadan kelgan sayyoh murojaat qildi. U ispan tilida so‘zlasha olar, hamkasblarim orasida bu tilni biladiganlar yo‘q edi. Men undan ahvolini so‘raganimda, juda xursand bo‘lib ketdi. Qo‘li jarohatlangani va og‘riqlar borligini aytdi. Biz unga tibbiy ko‘mak ko‘rsatdik. Men ispan tilida undan dorilarga allergiyasi bor yoki yo‘qligini, emlashlar olganini so‘radim. Davolovchi shifokor va bemor o‘rtasida tarjimon bo‘la turib, ispan tilidagi tibbiyotga oid yangi so‘zlar bilan tanishdim. Xorijiy tilda muloqot qilayotganimdan qanchalik xursand bo‘lmay, ammo bu tilni sayoz, haminqadar bilishimni ham inkor eta olmasdim.

Shundan so‘ng ispan tilini mukammal o‘rganishni maqsad qildim. “Ibrat farzandlari” loyihasi menga ko‘mak berdi. Men ispan tilini onlayn o‘rgana boshladim va bu hayotimni o‘zgartirdi.

Inson faqat kasbiy faoliyati taqozosi yoki sayohat uchun xorijiy tillarni o‘rganishi kerak emas. Har birimizning qiziqishlarimiz va sevimli mashg‘ulotimiz bor. Ona tilida badiiy asarlarni mutolaa qilamiz, biror narsa o‘rganamiz, film tomosha qilamiz. Bu yaxshi, ammo xorijiy tillarda qiziqarli va qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan juda ko‘p kitoblar, maqolalar, filmlar bor. Ba’zan tarjima qilingan kitoblarni asl nusxada o‘qish qiziqroq, chunki tarjimaning sifati ko‘pincha yaxshi bo‘lmaydi va har doim ham muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni yetkazib bera olmaydi. Shu ma’noda, “Ibrat farzandlari” hayotimga rang-baranglik olib kirgan, til o‘rganishimga ko‘mak bergan, muloqot madaniyatimni oshirgan eng yaxshi loyiha deya olaman.

Aziza ABDIYEVA,
loyiha ishtirokchisi:

— “Ibrat farzandlari”gacha ancha vaqt til o‘rgatish kurslarini qidirganman. Ular qimmat, moliyaviy holatimga to‘g‘ri kelmasdi. Internetda o‘zbek tilida xorijiy tillarni o‘rgatishga yo‘naltirilgan kontent yo‘q va barchasi tushunarsiz edi. Keyin “Ibrat farzandlari” loyihasi haqida eshitdim. “Ibrat Academy” platformasi orqali ingliz tilini yanada chuqur o‘rganishni boshladim. Barcha darslar tushunarli, aniq, undan tashqari, interaktiv testlar ham bor, ular bilimimni oshirishga yordam berdi. 2023-yil bahorda “Ibrat Camp” loyihasi ish boshladi. Bo‘stonliqdagi so‘lim oromgohda o‘tkazilgan mashg‘ulotlarda IELTSdan yuqori natijaga erishish, inshoni to‘g‘ri yozish, mantiqiy fikrlashni o‘rgandim. Ko‘plab do‘stlar orttirdim, yangi bilimlarga ega bo‘ldim.

Yaqinda xalqaro sertifikat uchun imtihon topshirib, 7,5 ballni qo‘lga kiritdim. Bu natijaga erishishimda, ingliz tilini puxta o‘rganishimda Rustam Qoriyev va Iskandar Kamoliddinovning darslari muhim omil bo‘ldi. Shu asosda interaktiv testlar ishladim. Bundan tashqari, sun’iy intellekt yordamida diagnostik testlarda ham o‘z bilimimni sinab ko‘rdim.

Bugun yoshlarning til o‘rganishi, bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun yetarlicha sharoit bor. “Til o‘rganishga mablag‘im yetmaydi”, “Yaqinimizda o‘quv markazi yo‘q, olisga esa qatnay olmayman” yoki “Kunduzi ishlayman, til o‘rganishga qachon vaqt topaman?” deya o‘ylanadigan yurtdoshlarimizning bu muammosi bugun yechimini topgan. Ular istalgan vaqtda, istalgan joydan turib, yurtimizning yetuk va tajribali mutaxassislaridan bilim olishi, til o‘rganishi mumkin.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Risolat MADIYEVA tayyorladi.

Hunarmandlik

ZAR QADRINI BILGACH...

“Yer yuzida bitta ayol qolsa ham zargarga ish bor”, degan naql bejiz aytilmagan. Zargarlik san’ati o‘zbek milliy madaniyati tarixining ajralmas qismi sifatida asrlar davomida taraqqiy etib kelayotgan ko‘hna hunarlar sirasiga kiradi. U badiiy hunarmandlik sohalaridan biri bo‘lib, mis, oltin, kumush, qalay kabi rangli metallardan qimmatbaho va noyob zeb-u ziynatlar, taqinchoqlar, bezak buyumlarini yasashni o‘z ichiga oladi.

Farg‘onalik zargar Matluba Toshtemirovani qidirib topishimiz oson bo‘ldi. Xayolimda turli zebu ziynatlarga burkangan ayol bilan uchrashsam kerak deb tasavvur qilgandim. Adashgan ekanman, bizni farg‘onaliklarga xos lutf, samimiyat bilan qarshi oldi uy bekasi.

Zargar ustaxonasini mo‘jizalar oroliga qiyoslasa bo‘ladi. Betakror, nafis, serjilva, rang-barang zeb-u ziynatlarga boqib, zargarning mehnat va mahorati, izlanishlariga tasannolar aytamiz. Bu yerda tayyorlanayotgan har bir ish noyob san’at asariga teng. Hunarmandning ishlarini ko‘rib, zargarlar sulolasidan bo‘lsa kerak deb o‘ylagandik. Unday bo‘lib chiqmadi.

— Dadam texnik anjomlarni ta’mirlash bilan shug‘ullangan, — deydi hunarmand. — Shu bois, eski mis simlardan uzuk, sirg‘a singari taqinchoqlar tayyorlab, dugonalarimga sovg‘a qilardim. Ulg‘aysam, albatta, zargar bo‘laman, sizlarga chiroyli zeb-ziynatlar tayyorlab beraman deb faxrlanganim hamon yodimda. Ro‘zg‘or uchun bozorga tushib, zargar usta bilan tanishib qolganman. Dastlab zargarlik buyumlarini sotishda yordam berdim. Keyin boshqa zargarlar bilan tanishib, mahsulot tayyorlash sirlarini o‘rganishga kirishdim. Bu orada haykaltarosh Aleksandr Kavalchukdan oddiy toshlardan turli sovg‘a buyumlar, haykalchalar tayyorlashni o‘rgandim. Sohaga qiziqish va intilishlarimni ko‘rgan hunarmandlar hamkorlikka chorladi. Shu tariqa mashhur zargar Abdusattor Masharipovdan o‘zbek milliy taqinchoqlari turkumiga kirgan zebigardon, tillaqosh, kokilbaldoq, zanjirlar, uzuk, sirg‘alar tayyorlash, qayta ta’mirlash bilan bog‘liq zargarlik sir-asrorlarini o‘zlashtirdim. Shaxsiy ustaxonam uchun kerakli jihozlar olib, mustaqil ish boshlaganimga chorak asr bo‘ldi. Ustozimdan hanuz o‘rganaman, qo‘llab-quvvatlashidan kuch olaman. Keyingi yillarda bu hunar va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan e’tibor oshdi. Avvallari xomashyo topish, mahsulot sotishda turli qiyinchiliklarga duch kelganmiz. Endi hammasi o‘zgardi. Ishlayman, izlanaman deganga barcha sharoitlar yaratilgan.

Zargarlikda har bir hududning o‘z uslubi, tayyorlash an’analari bor. Farg‘ona zargarlik yo‘nalishida kokilbaldoq nusxali taqinchoqlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratiladi. U o‘ziga xos jilva, rang-barang tovlanishi, kokil kabi nozik ko‘rinishi bilan ajralib turadi.

— Zargar, avvalo, yaratuvchi bo‘lishi talab etiladi, — deydi usta. — Unda shaxsning har bir jihatini e’tiborga olish zarur. Masalan, ayollar yuz tuzilishi, ko‘z qorachig‘i, soch turmagi, kiyinish uslubi muhim. Bunga e’tibor bermay, mijozga yoqadigan buyum yasab bo‘lmaydi. Shogirdlarimga hunarimizning bu jihatlarini juda ko‘p bor aytaman, unga amalga qilishga undayman. Chunki insonga yoqqan narsa unga yarashiqli bo‘lishi ham kerak. Mahsulot tayyorlashda mis, kumush, marvarid, yoqut, durdan keng foydalanishga e’tibor qaratamiz.

Zargarlik buyumlari nafaqat chiroyli ko‘rinishi, balki inson salomatligi uchun foydali jihatlarga boyligi bilan ham e’tiborni tortadi. Xususan, misdan tayyorlangan bilakuzuklar tomir urishini me’yorlashtiradi, kumush qonni suyultiradi, mis esa tanadagi zararli bakteriyalarni o‘ldirishda yaxshi samara beradi. Shu bois, ota-bobolarimiz mis idishlardan foydalanishni afzal ko‘rgan.

Bu hunar umrboqiyligi, yangi ko‘rinish, uslublarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Zargarlar bezak buyumlar tayyorlashda metallni eritib quyish, zarb bilan yasash, hallash (oltin va kumush suvi yuritish) bo‘rtma yoki o‘yilgan holda naqsh tasvirlash, bosma qolipli kabi usullardan keng foydalanadi. Qimmatbaho gavhar, feruza, yoqut, dur kabi toshlarga ishlov berilib, ularni yanada bejirim va ko‘rkam qilib, buyumga ko‘zlar qadaladi.

Keyingi yillarda zargarlik rivojlanib, u san’at darajasiga ko‘tarildi, turli qiymatlik xomashyolardan foydalanish yo‘lga qo‘yildi. Bu zargarlik buyumlari ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirish, turlarini ko‘paytirish, unutilgan an’analarni qayta tiklash imkoniyatini berdi.

— O‘zbekistonda zargarlik jadal taraqqiy etayotgan sohalardan biriga aylandi, — deydi “Hunarmand” uyushmasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i vazifasini bajaruvchi Rashidjon Aminov. — Prezidentimizning 2021-yil 30-dekabrdagi “Hunarmandchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bu borada qator imkoniyat eshiklarini ochdi. Bugungi kunda viloyat uyushmasi tarkibida zargarlik bilan shug‘ullanayotgan 26 nafar hunarmand bor. Ular qatorida sulolaviy, “usta-shogird” an’analari asosida faoliyat yuritayotgan zargar hunarmandlar safi ko‘payib bormoqda. Farg‘ona shahridan Matluba Toshtemirova, marg‘ilonlik Yahyoxon Abdujabborov, Akbarjon Umaraliyev, qo‘qonlik Hikmatoy G‘iyosova, Maqsudjon Ubaydullayev ko‘hna hunar durdonalarini nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham ko‘z-ko‘z etib kelmoqda. Bundan tashqari, “usta-shogird” an’analari asosida yoshlarga hunar o‘rgatayotgan hunarmandlarga shogirdlar tayyorlashi, zarur xomashyo sotib olishi va shogirdlarni ish haqi bilan ta’minlash, mustaqil faoliyat boshlashi uchun zarur asbob-uskuna va jihozlarni sotib olishda qator imtiyozlar berildi. Internet saytlari ochish, mahsulotlarini jahon elektron savdo maydonchalariga chiqarish va reklama uchun ustalarga internet xarajatlarini qoplash, nogironligi bo‘lgan shaxslarga ish joyini moslashtirish uchun Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Hunarmandchilik va kasanachilikni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan 265,1 million so‘m subsidiya ajratildi.

Zargarlik oson ish emas. U sabr-bardosh, qunt, intilish va izlanish, ko‘z nuri, qalb qo‘rining mahsuli. Zargar ustaxonasida bo‘lganimda ko‘rgan, bilganlarimiz bu hayot haqiqatlarini yana bir bor yodimizga soldi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.

SOG‘LOM TURMUSH SAHIFASI

KEKSAYGANDA XOTIRJAM YASHASH SHARTI

Hamroqul RAFIYEV,
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali professori

Bugungi ilmiy-texnikaviy taraqqiyot inson hayoti uchun zarur jismoniy faollikni kamaytirib yubordi. Natijada surunkali kasalliklarga chalinganlar soni ortib bormoqda. Asosiy sabab esa jismoniy faollik yetishmasligi, kamharakatlilik ekanini mutaxassis olimlar bong urib, odamlarni sog‘lom turmush tarzi talablariga rioya etishga da’vat qilmoqda.

Sog‘lom turmush tarzi yangi mavzu emas. Qadimdan odamlar sog‘lom turmush tarzi haqida tushunchaga ega bo‘lgan. Jumladan, buyuk tabib, faylasuf Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari salomatlikni saqlash va mustahkamlash g‘oyasi asosida yozilgan. Alloma salomatlikni saqlashda jismoniy faollik muhimligini, birinchi o‘rinda badantarbiya, undan keyin ovqatlanish tartibi va uyqu turishini qayd etgan. Buyuk tabib bunday yozadi: “Me’yorida va o‘z vaqtida badantarbiya bilan shug‘ullanadigan inson hech qanday davolanishga muhtoj emas”. Davolanishga muhtoj bo‘lmagan inson sog‘lom bo‘ladi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasidagi 100 ta maqsad orasidan keksalar o‘rtasida va umuman, jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish masalalari ham o‘rin olgan. Bu borada qator me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ular samara bermoqda. Mamlakatimizda 10 ming qadam yurish, yugurish marafoni, “Besh tashabbus”, “Aholi jismoniy tayyorgarlik darajasi” sport sinovlari kabi musobaqalar odamlarda jismoniy faollikni oshirish orqali umumiy madaniyatning yuksak darajada shakllanishiga yordam beradi. Bu odamlarni ma’naviy, jismoniy, ruhiy quvvatlantirib, salomatligini yaxshilaydi. Biz jismoniy madaniyatni bugun qayerda ommalashtirsak, o‘sha yerda sog‘lom turmush qaror topadi. Bu yangi O‘zbekistonni barpo etishda muhim omillardan.

Bir vaqtlar Samarqand viloyati hokimligida sport masalalari bo‘yicha maslahatchi, sport ishlarini muvofiqlashtiruvchi kengash raisi bo‘lganman. O‘sha paytlarda keksalarimizni qanday qilib sog‘lomlashtiramiz, degan savol bizni o‘ylantirgan. Besh kishilik kichik guruh tuzib, dastlab Samarqand davlat chet tillar instituti bazasida shug‘ullandik. Kichik musobaqalarimizda 70 yasharlar ham qatnasha boshladi.

Safimiz kengayib bordi. Bu juda yaxshi holat edi. Insonning keksalik davrida sog‘lom bo‘lishi juda muhim. Agar betob bo‘lsa, o‘zini, salomatligini, turmush tarzini boshqara olmaydi. Jamiyatda faolligi, ko‘pgina imkoniyati cheklanadi. Oilasida xotirjamlik bo‘lmaydi. Shifokorga ko‘rinish, dorixonalarga murojaat qilish kerak bo‘ladi. Bu oilaning moliyaviy ahvoliga jiddiy ta’sir qiladi. Peshana teri evaziga topilgan mablag‘ dori-darmonga, shifoxonalarga sarflanadi. Kezi kelganda odamning moddiy, madaniy-ijtimoiy holatini yaxshilashga mablag‘ ham yetmay qoladi. Shu sabab keksalarning jismoniy faolligini ta’minlash uchun nuroniylar o‘rtasida turli jismoniy mashg‘ulotlar, sog‘lomlashtiruvchi sport musobaqalari dasturini tuzdik. Ularning yoshiga mos, salomatligini yaxshilashi mumkin bo‘lgan oddiy jismoniy harakatlardan iborat sport turlarini ishlab chiqdik. Har yili bayramlarda nuroniylar yig‘ilib, biz uchun maxsus ajratilgan “Afrosiyob” sport majmuasida sog‘lomlashtiruvchi musobaqalar tashkil etadigan bo‘ldik. Samarqand shahridagi xiyobonda ommaviy yugurishni boshladik, yugurish marafonlarida faol ishtirok etdik. Keksalar o‘rtasida “Uch kurash” nomli sog‘lomlashtiruvchi sport musobaqasi o‘tkazdik. Bu “Afrosiyob” sport majmuasining 164 metrli yo‘lagi bo‘ylab yugurish, basketbol to‘pini masofadan turib savatga tushirish, badantarbiya mashqlarini o‘z ichiga oldi. 80 yoshdan 94 yoshgacha bo‘lganlar safimizga qo‘shildi. Ularga dastavval mashg‘ulotlar tartibi va mohiyatini tushuntiramiz, keyin ko‘rsatmali mashqlar bajariladi. Biz sog‘lom turmush tarzini shu tariqa targ‘ib qila boshladik. Musobaqalarga yuzlab odam keladigan bo‘ldi. Ular tibbiy ko‘rikdan o‘tib kelsa ham o‘zimiz qaytadan ko‘rikdan o‘tkazamiz. Shifokorlar tavsiyasiga ko‘ra, ishtirokchilar guruhga qabul qilinib, sog‘lomlashtiruvchi sport musobaqalariga jalb etiladi. Agar salomatligi sport bilan shug‘ullanishga monelik qilsa, muxlis sifatida ishtirok etishi mumkin. Shug‘ullanayotganlarning 96 foizida qon bosimi me’yorda ekani aniq bo‘ldi. Bu juda yaxshi natija edi.

Ba’zan milliy o‘yinlarni ham targ‘ib qilamiz. Shogirdlarim milliy o‘yinlarni yaxshi biladi. Musobaqalarda faol ishtirok etib, milliy o‘yinlarni muvaffaqiyatli namoyish etib, keksa avlod vakillarini ham jalb qilishga erishyapmiz. Masalan, Pastdarg‘om tumani Charxin qo‘rg‘onidagi 51-maktabda shogirdim Dilshoda Isroilova keksa onaxonlar bilan tashkil qilgan harakatli o‘yinlar asosidagi sog‘lomlashtiruvchi sport mashg‘ulotlari natijasida onaxonlarning sog‘lig‘i yaxshilanib, doriga, davolanishga ehtiyoji sezilarli darajada kamaydi. Ayniqsa, qo‘qonlik iqtidorli shogirdim Ilyosjon nafaqat yurtimiz miqyosidagi, balki xalqaro darajadagi yugurish marafonlarida muvaffaqiyatli ishtirok etib kelmoqda.

O‘tgan yil 1-3-noyabr kunlari Samarqand shahrining muhtasham Registon maydonida 2, 5, 10, 21, 42 kilometr masofaga yugurish bo‘yicha xalqaro xayriya marafoni o‘tkazildi. Ushbu marafonda men ham 2 kilometrga yugurib, “Yoshi eng ulug‘ ishtirokchi” sifatida e’tirof etildim va maxsus sovrin bilan taqdirlandim. Marafonda 76 dan 80 yoshgacha bo‘lgan nuroniylar — narpaylik Qudrat bobo, ishtixonlik Ro‘zi bobo, Samarqand tumanidan Jo‘raqul bobo va boshqalar ishtirok etdi. O‘zim 86 yoshga qarab ketyapman. Hali-hamon yuguraman. Keksalikda qanday yugurishni bilish kerak. Uning o‘ziga xos xususiyati bor. Nafas rostlash, qo‘l harakati, gavdani tutishga alohida yondashiladi. Shuning sirlarini asta-asta o‘rganib, o‘zimizga dastur qilib olyapmiz.

Mamlakatimizda aholining barcha qatlami jismoniy faolligini oshirish uchun yaxshi sharoit yaratilmoqda. Biz, nuroniylar mana shu sharoitlardan unumli foydalanishimiz davr talabidir. Maqsadimiz mamlakatimizda jismoniy madaniyat qaror topib, har bir inson sog‘lom turmush tarziga amal qilsin. Bu haqdagi zarur bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lsin. Zero, sog‘lom millat — yangi O‘zbekistonning tayanchi, bebaho boyligi.

Muzaffar TOJIYEV,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Kamharakatlilik, ya’ni gipodinamiya bir ish kuni davomida besh soatdan ortiq vaqtni o‘tirgan holatda o‘tkazishdir. Mutaxassislar qo‘l mehnatining avtomat texnika, robotlar yordamida yengillashishi, kommunikatsiya vositalari ko‘payishi bunda muhim omil bo‘layotganini takrorlamoqda. Gipodinamiya odatiy turmush tarziga aylangan, ayniqsa, ofisda kursiga mixlanib ishlash jismoniy harakatni cheklab qo‘ygan bir davrda salomatlik bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Buning oldini olish va sog‘lom turmush tarziga erishishning muhim jihatlaridan biri badantarbiya mashqlaridir. Kunning istalgan qismida — ish orasida, qulay vaqtda bajarish mumkin bo‘lgan jismoniy mashqlarni tavsiya etamiz.
Ularni bajarib ko‘ring, shu ondayoq o‘zingizni tetik his qilsangiz, ajab emas!

Mutaxassis tavsiyasi

UZZUKUN O‘TIRIB ISHLAYDIGANLAR UCHUN MASHQLAR TO‘PLAMI

Oyoq muskulini cho‘zing

Stulda o‘tiring (oyoqlar yerda) va bitta oyog‘ingizni oldinga ko‘taring, ikki soniya tutib turing. Buni har bir oyog‘ingiz uchun 15 martadan takrorlang.

Belni cho‘zing

Stulda tik o‘tirib, ikki oyoqni birlashtiring. Qo‘llarni yuqori ko‘taring. Chap qo‘lni stolga qo‘ying va o‘ng qo‘l bilan stul suyanchig‘ini ushlang. O‘ngga buriling va 10 soniya shu holatda o‘tiring. Harakatni boshqa yo‘nalishda ham takrorlang.

Yelka chigilini yozing

Stulda to‘g‘ri o‘tiring, chap qo‘lingizni pastdan orqaga o‘tkazing, o‘ngini esa yuqori ko‘tarib, yelkangiz osha orqadan o‘tkazing. Qo‘llarni bir-biriga chirmashtirib, cho‘ziling.

Biqinni cho‘zing

Stulda tik o‘tiring. Chap qo‘lni ko‘tarib, o‘ng qo‘l bilan chap tirsakni ushlang. Chap qo‘lni o‘ng tomonga cho‘zing, 10 soniya qimirlamay o‘tiring. Qo‘llarni almashtirib, harakatni takrorlang.

Yelkani aylantiring

To‘g‘ri o‘tiring va kuraklarni bir-biriga yaqinlashtirib, aylanma harakat qiling. Shu harakatni 12-15 marta takrorlang.

Bo‘yin muskulini harakatlantiring

Boshingizni qo‘llaringiz bilan changallab ushlang. Kaftlarni peshanaga tushirib, boshni orqaga tashlang. Bo‘yin mushagi bilan esa ushbu harakatga bor kuchingiz bilan qarshilik ko‘rsating. Shundan so‘ng kaftlarni boshning orqa tomoniga qo‘ying va mashqni teskari yo‘nalishda takrorlang.

Gavda muskulini mashq qildiring

Kreslongiz aylanadigan bo‘lsa, undan foydalanib, ushbu mashqni bajarishingiz mumkin. Tik o‘tiring va oyoqlarni yerdan ko‘taring. Qo‘llaringiz bilan stol chetidan ushlab oling. Gavda mushagini tortib, kuch bilan bir tomondan ikkinchi tomonga aylaning.

Tovonni aylantiring

Tovoningizni soat mili bo‘ylab va soat miliga qarshi aylantirish orqali to‘piqlarni mashq qildiring. Harakatni har bir yo‘nalishda 3 martadan takrorlang.

Mulohaza

NOTIQLIK: QALBLAR UYG‘UNLASHADI, BIR MAQSAD SARI INTILISH ISTAGI KUCHAYADI

Farhod BOBOJONOV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, oliy toifali suxandon

2025-yilning ham bir oyini yashab o‘tdik. Boshlangan yil qalblarga cheksiz hayajon olib kirdi, yuraklarni junbishga keltirdi. Axir umrimiz kitobining yana bir sahifasi yopildi. Goh kutilmagan quvonchga, goh tashvish, goh ikkilanib, yetti o‘lchab bir kesishdek qaltis damlarga guvoh bo‘lgan bir yilimiz ortda qoldi.

Abdulla Avloniyning 1914-yilda “Sadoi Turkiston” gazetasida chop etilgan maqolasida bunday jumlalarga duch kelamiz: “Endi vayrona sohiblarini faqir va zorlikda yashagan, bola-chaqalarini qo‘l kuchi bilan to‘ydiradigan, to‘y degan yerda muqaddas vatanni sotib, sarf qilmoqqa tortinmaydigan “hoziram — huzuram”, deb istiqbolini o‘ylamagan va bolalarining saodatini tushunmagan qavmdan qanday taraqqiy va ma’rifat kutmoq kerak?”.

Qanchalik og‘ir bo‘lmasin, bu — haqiqat. Demak, bundan 100 yillar burun ham ta’lim-tarbiya, bilim olishga rag‘bat yo‘qligidan ziyolilarimiz noligan...

Shukrki, bugun davr boshqacha. Ammo yosh avlodni tarbiyalash, bilimli qilish masalasi hamon dolzarb. “Beshikdan qabrgacha ilm izla”, deyiladi tabarruk manbalarda. Bu yo‘lda to‘xtash, bir muddat nafas rostlashga fursat yo‘q. Zero, jamiyatning kelgusidagi mavqei, holati, shubhasiz, maktablarda farzandlarimizga dars berayotgan o‘qituvchi va murabbiylarning insoniy xislatlari, ma’naviy komillik darajasiga bog‘liq.

Atoqli yozuvchi Chingiz Aytmatov ta’biri bilan aytganda, “Abadiy va o‘tkinchi hodisalar doimo to‘qnashib turadigan bugungi kunda mehnatkash odam shaxsiyati, boy ma’naviy dunyosi, zamonning qay jihatlarini o‘zida mujassamlashtirgani bilan qadrlidir”.

O‘tmishi xotirasidan ko‘tarilgan, o‘z qavmi va boshqa xalqlar tarixidan bexabar kishi faqat buguni bilan yashaydi.

O‘zbekiston yoshlari o‘z bilimi va salohiyati bilan dunyodagi eng iqtidorli tengqurlari bilan bemalol bellasha oladi. “Quyosh bo‘lmasang ham yulduz bo‘l. Yulduz bo‘lganda ham osmondagi eng yorqin yulduz bo‘l”, deydi atoqli adib Robindranat Tagor.

Farzandlarimizga aytar so‘zimiz, tabiiyki, bor va ko‘p.

“So‘zamollik aqlga sayqal beruvchi nur... Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo‘lib qolish kerak”, degan edi buyuk faylasuf, notiq Sitseron.

Notiqlik san’atidan boxabar kishi tez e’tiborga tushadi. Ayniqsa, yosh notiq so‘z qudrati orqali qanday qilib tengdoshlari qalbini zabt etgani, ularning sardoriga aylanganini o‘zi ham bilmay qoladi. Zero, notiqlik — qalblarni egallash san’ati.

Bugungi har bir rahbar notiqlikni, gapirish san’atini to‘la egallashi lozim. Aks holda, fikrini atrofidagilarga to‘liq, to‘g‘ri yetkaza olmaydi. Bu esa uni o‘z maqsadidan chalg‘itadi. Odamlar hech qachon muddaosini aniq, puxta aytolmaydigan inson atrofida yig‘ilmaydi, jam bo‘la olmaydi.

Biz eramizdan oldingi davrlardayoq buyuk davlat yaratgan millatmiz. Bunday maqomga erishgan davlatlar safiga hozirgi Misr, Hindiston, Iroq, Suriya, Eron, Yaponiya, Yunoniston, Italiyani kiritish mumkin.

London XI asrda paydo bo‘lgan. Holbuki, Samarqand 2750, Termiz va Qarshi 2700, Buxoro, Xiva esa 2500 yillik tarixga ega shaharlardir. Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy kabi olim bobolarimiz, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi buyuk sarkardalarni, Navoiy, Ogahiy, Bobur kabi shoirlarni bergan xalqning qoni yuragimizda, tomirimizda jo‘sh urib oqyapti.

Yurtimizning uzoq asrlik tarixini chuqur o‘rganish O‘zbekistondagi har bir yigit-qizning burchidir. Bundan bir necha ming yil ilgari “Avesto” kitobida yozilgan “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” g‘oyasi xalqimizning qalbida, dilida yashayotir.

Bog‘cha yoshidagi farzandlarimizga o‘zbek tilida notiqlikni o‘rgatish bo‘yicha dadil qadamlar tashlanganiga to‘rt yildan oshdi. Notiqlik orqali bolada ona tiliga, yurtga, vatanga mehr uyg‘onadi. Endi maktab yoshidagi bolalarga so‘zamollik, biyron so‘zlash san’ati bo‘yicha to‘garaklar tashkil etish, bu yo‘nalishda musobaqalar o‘tkazish fursati keldi.

Xalqni yaxshiliklar sari boshlashda so‘zamollik san’ati juda katta qudratga ega. Albatta, bu o‘z-o‘zidan bo‘ladigan ish emas. Minbarlarda, xalq orasida yurib, odamlar qalbiga yo‘l topish kishidan yuksak salohiyat, donishmandlik, tafakkur, boy insoniy fazilatlarni talab qiladi. Notiqlik san’atini egallagan inson ovozida kishini rom etadigan ohanrabo, yorqin kuch namoyon bo‘ladi. Bu qudrat atrofida esa minglab, millionlab qalblar uyg‘unlashadi, bir maqsad sari intilish istagi paydo bo‘ladi. Ana shu buyuk istakni ro‘yobga chiqara olgan so‘z ustalari — notiqlar, so‘zamollar hamisha hurmat va e’zozda bo‘lgan.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** — 246.
35572 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 20:55 Topshirildi — 01:25

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05